



Tadqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA MILLIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMAN

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ALBERT EYNSHTEYN  
(1879-1955)

2022  
YANVAR  
№36



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.



+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00

[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)



[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)

**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
3-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-3**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-3**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 36-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 январь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 47 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохига Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛANIШЛАР**

**1. Abdrimova Karomat Raximboyevna**

TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ..... 7

**2. Abdullayeva Aziza Narzullo qizi**

YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT POYDEVORI ..... 8

**3. Egamberganova Oygul**

XORAŽM DAVLATI VA UNING YUKSALISHI ..... 10

**4. Matmuratova Koramat, Sultanova Zavrajon**

1918-1939 YILLARDA ITALIYA ..... 12

**5. Qo'chqorov Quvondiq Shakirovich**

HAZORASP QAL'ASI TARIXI ..... 13

**6. Оллаберганова Озода Собиржоновна**

ХИВА ХОНӢ МУХАММАД РАҲИМҲОН I ДАВРДАГИ ИСЛОХАТЛАР ..... 15

**7. Ҳударганова Назокат Фарҳодовна**

ХИВАНИНГ МАШҲУР КИШИЛАРИ ..... 17

**8. Mavlona Dildora Xabibullayevna**

TARIX FANLARINI O'QITISHDA MANBALARGA E'TIBOR VA ULARDAN  
O'QUVCHILAR BILIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA UNUMLI  
FOYDALANISH ..... 20

**9. Xolisova Obidaxon Rahimovna**

ABU ALI IBN SINONING – TARIXIY , ADABIY, DINIY, ILMIY MEROSINI  
O'RGANISHDA METODIK TAVSIYALAR ..... 22

**10. Курбанов Мердан Кадирбаевич**

АЛИШЕР НАВОЙЙ – ЖАҲОН МАҶНАВИЯТИНИНГ БУЮК СИЙМОСИ ..... 24

**11. Bozorov G'ulom Tilovovich**

TARIX FANINING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARI ..... 26

**12. Matniyozov Timur Matyoqubovich**

O'RTA OSIYODA TABIIY-IQTISODIY HUDUDLARNING VUJUDGA KELISHI VA  
UNUNG GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI ..... 28

**13. Ruzibayev Sarvar Rajabovich, Xo'jayeva Dilnoza Erkinovna**

TARIX DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ..... 30

**14. Sabirova Dilfuza Hasanbayevna, Jumanazarov G'ulomjon Qadambayevich**

TARIX DARSLARIDA QIZIQARLI O'YINLI USULLARDAN FOYDALANISH ..... 32

**15. Abdullayeva Muhayyo Muhibullaxonovna**

MAHMUD AZ-ZAMAHSHARIYNING HAYOTI VA ASARLARI TARIX VA TARBIYA  
FANLARIDA O'QUVCHILARNING KOMIL INSON DARAJASIDA KO'TARISHDAGI  
O'RNI BEQIYOSLIGI HAQIDA METODIK TAVSIYA ..... 34

**16. Xamrayeva Muhayyo Shavkatovna, Karimova Shahnoza**

O'ZBEKISTON TARIXINI O'RGANISHNING ILMIY-NAZARIY VA METODOLOGIK  
ASOSLARI ..... 36

**17. Yakubbayeva Ziloyxa Komilovna, Batirova Mamlakat Raximovna**

O'QUVCHILARDA TARIXNI BILISH ORQALI O'ZLIKNI ANGLATISH ..... 38

**18. Mavlona Dildora Xabibullayevna**

AMIR TEMUR HARAMINING DURDONALAR ..... 40

**19. Декқонов Анвар Валижонович**

УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА “ТЕМУР ТУЗУКЛАРИ”ДАН ОЛИНАДИГАН  
ХУЛОСАЛАР: ТУМУР ҚАДРЛАГАН 12 ТОИФА ..... 45



## ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

### TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

**Abdrimova Karomat Raximboyevna,**  
Xorazm viloyati Bog`ot tumani 38- maktab  
umidajumaniyozova9@gmail.com

**Annotatsiya:** Tarixni o`qitishda innovatsion texnologiyalar fanining maqsad va vazifalarini o`rganish

**Kalit so`zlar:** interfaol, ta`lim, tarbiya, o`quv-predmet, an`anaviy dars

Tarixni o`qitishda innovatsion texnologiyalar fanining maqsadi tarix o`qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, pedagogik tafakkurini kengaytirish, ularda fanni o`qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo`llash uchun zarur bo`lgan metodik bilim, ko`nikmalarni shakllantirishdan iboratdir.

Tarix o`qitishda innovatsion texnologiyalar fanini o`qitishning maqsad va vazifalari .Shu vaqtgacha an`anaviy ta`limda talaba (yoki o`quvchi) larni faqat tayyor bilimlarni egalashga o`rgatib kelingandi. Bunday usul o`quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so`ndirar edi. Endi o`quv jarayonini yangilangan dastur va standart talablariga javob beradiganzamonaviy darslar asosida tashkil etish davri keldi.

Boshqacha qilib aytganda zerikarli darslar o`rniga darslarni tashkil etishgama`suliyat bilan yondashadigan, kasbiy bilimdon, metodik mahoratga ega, ma`suliyatli, zamonaviy, interfaol pedagogik texnologiyani mukammalo`zlashtirib olgan, innovatsiyalar asosida ta`limni tashkil eta oladigano`qituvchilarga talab oshib bormoqda. Innovatsiya (inglizcha innovation)-yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o`qituvchi va o`quvchi faoliyatiga yangilik, o`zgarishlar kiritish bo`lib, uni amalgam oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalilaniladi.

Interfaol (“Inter”- bu o`zaro, ”ast”- harakat qilmoq) - o`zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo`lishni anglatadi.

Boshqacha so`z bilan aytganda, o`qitishning interfaol uslubiyatlari - bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo`lib, unda ta`lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo`ladilar, ular biladigan va o`ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo`ladilar. Interfaol darslarda o`qituvchining o`rni qisman talabalarning faoliyatini dars maqsadlariga erishishga yo`naltirishga olib keladi

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning psixologik-pedagogik nuqtayinazardan takomillashuvining asosiy yo`nalishlari quyidagilar bilan ifodalanadi:

– o`quvchining yodlashdan eslab qolish funksiyasiga o`tishi, ya`ni o`zlashtirilganini ishlatish imkonini beruvchi aqliy rivojlanish jarayoniga o`tishi;

– o`rtacha o`quvchiga yo`naltirilganlikdan o`qitishning tabaqlashganva individuallashtirilgan dasturlariga o`tish;

– o`quvchining tashqi motivasiyasidan ichki ma`naviy tartibga o`tish.. Ta`limda zamonaviy didaktika va ta`lim tarkiblarining samaradorliginioshirish, yangi g`oya va texnologiyalarning ilmiy ishlab chiqilishi va amaliyasoslanishiga o`tilmoqda. Bunda har xil pedagogik tizim bilan o`qitishtexnologiyalari o`rtasida bog`liqlik, amaliyotda davlat ta`lim tizimining yangishakllarining aprobasiysi, hozirgi zamon sharoitida o`tmishning pedagogiktizimlarini qo`llash muhim hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Xodiyev B.Yu., Golish L.V., Rixsimboyev O.K. Keys-studi - iqtisodiy oliy o`quv yurtidagi zamonaviy ta`lim texnologiyasi: Ilmiy-uslubiy qo`llanma “Zamonaviy ta`lim texnologiyalari” turkumi. - T.: TDIU, 2009.

2. J.Yo`ldoshev, F.Yo`ldosheva, G.Yo`ldosheva. “Interfaol ta`lim sifat kafolati”. -T.:2008



## YANGI O’ZBEKISTONNING TARAQQIYOT POYDEVORI

**Abdullayeva Aziza Narzullo qizi,**  
Qarshi davlat universiteti tarix fakulteti  
talabasi Ilmiy rahbar:F.To’xtamishova  
Telefon:+998908702088  
Azizahistory@gmail.com

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada bugungi kunda yurtimizda olib borilayotgan keng ko’lamlı islohotlar va ularning yoshlar kelajagi bilan uzviy bog’ligi, shuningdek, taraqqiyotga erishishning asosiy omillari haqida so’z yuritiladi.

**KALIT SO’ZLAR:** Yangi O’zbekiston, strategiya, tarixiy xotiralar,Yangi O’zbekiston bog’i, inson huquqlari, Mustaqillik monumenti, Yangi O’zbekiston strategiyasi, yoshlarga oid davlat siyosati.

Bugungi kunda O’zbekiston o’zining taraqqiyot bosqichida yangi davrga qadam qo’ydi deb aytishimiz mumkin. Lekin bu yo’lga o’tish oson bo’lmadi. Bu tarixiy jarayonga matonatli xalqimizning ko’p ming yillar davomida chekkan zahmatlari, mardligi va olivjanobligi evaziga erishildi. Oxirgi yillarda o’zgarishlar, yangilanishlar davrida yashayapmiz. Yangi O’zbekistonning bir bo’lagi sifatida dunyo e’tirof etayotgan islohotlarga nafaqat guvoh bo’lib, balki barchamiz katta qadamlarni birgalikda tashlayapmiz. Bizning zimmamizga yuklangan ulug’vor tarixiy vazifa esa — Yangi O’zbekiston buniyodkorlari qatorida bo’lishdir. Yangi O’zbekistonning ramziy belgisi sifatida barpo etilgan Yangi O’zbekiston bog’i ham tahsinga sazovor.Bog’ mazmuni milliy davlatchilik tarixi, xalqning bugungi intilishlari va Uchinchi Renessans maqsadlarini o’zida mujassam etgan. Ushbu bog’ 2021-yil O’zbekiston mustaqilligining 30 yillik yubileyiga bag’ishlangan sanada ochildi va bayram tadbirlari shu yerda o’tkazildi.Bog’ juda katta maydonga ya’ni 105 hektar hududga ega bo’lib, atroflari ko’kalamzorlashtirilgan, ikkita muhim obyekt joylashtirilgan.Bulardan biri “Mustaqillik monumenti” bo’lsa, ikkinchisi esa besh ming kishiga mo’ljallangan amfiteatrdir. Monumentning balandligi 60 metr, eni 5 metrni tashkil etadi.Uning ichki qismi O’zbekistonning 3 mingyillik tarixini yoritib beradi.Tashqi tarafida esa Buxoro,Xiva,Samarqand,Termiz shaharlari,chap qismida birinchi renessans davri,Al-Xorazmiy davriga oid tasvirlar,o’ng tomonida esa ikkinchi renessans davri,Mirzo Ulug’bek va Amir Temur siymolari aks ettirilgan.Ushbu mahobatli inshoot “O’zbekistonning yangi qiyofasini, uning ulkan salohiyatini, ko’p millatli xalqining birligi va hamjihatligini aks ettiruvchi” majmua bo’ldi. Shularni inobatga olgan holda bu bog’ga “Yangi O’zbekiston” nomi berildi. Bundan tashqari O’zbekistonning obro’-e’tibori va nufuzini oshirishga qaratilgan Yangi O’zbekiston strategiyasi ishlab chiqildi. Prezidentning ushbu kitobida Yangi O’zbekiston va Uchinchi Renesansni qurish bo’yicha qilinayotgan ishlar va milliy taraqqiyot istiqbollari haqida fikr yuritilgan. “Yangi O’zbekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirgi davrning taqozosи, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g’oyaviy-ma’naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko’lamlı islohotlarimizning yaqqol ifodasidir”<sup>1</sup>, — so’zleri bilan ushbu kitob boshlanadi.

Yangi O’zbekistonning taraqqiyoti va farovonligi uchun biz yoshlar ham mas’ulmiz. Prezidentimiz o’z intervyyusida zamonaviy tamaddunning eng muhim, eng ustuvor jihatini qaydetadi: “ Binobarin, biz endi aqlimizni, intellektual salohiyatimizni, bilim va tajribamizni oshirishimiz, aynan ana shu omillarni iqtisodiy o’sish nuqtalari va resurs manbalariga aylantirishimiz shart”<sup>2</sup>. Haqiqatdan ham, bilim va tajriba, tinimsiz o’qib-o’rganish, izlanish, yangilikka intilish, yuqori texnologiyalarni joriy etish, islohotlarni samarali olib borish evaziga Yangi O’zbekistonni jahon maydonida yanada kuchli salohiyat, munosib obro’-e’tiborga ega bo’lgan, har tomonlama obod va farovon mamlakatga aylantira olamiz.

Davlatimiz rahbari tarixni o’rganish va o’rgatish masalalari haqida ham gapirdi. “Biz shu vaqtgacha tarixning o’zimizga yoqqan joylarini olib, yoqmagan tomonini yashirib o’tdik. Birovga yoqadimi-yoqmaydimi, g’ururimizmi-armonimizmi, muvaffaqiyatmi yo xiyonatmi - hammasini

1 Mirziyoyev.Sh.M.Yangi O’zbekiston strategiyasi.T.: “O’zbekiston”,2021.

2 O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning “Yangi O’zbekiston” gazetasi bosh muharriiga bergan intervyyusidan.



haqqoniy yozish kerak. Milliy istiqlolimiz uchun kurash olib borgan, lekin reabilitatsiya qilinmay qolgan 115 nafar bobomizning pok nomlari oqlandi. Hali bundaylar qancha? Vatanparvar insonlarning sha'nini tiklashga qaratilgan ezgu ishlarni davom ettirish kerak. Jadid bobolarimiz yurtimizni ozod etishga, qoloqlikdan olib chiqib, hamma sohalarni rivojlantirishga borini bag'ishlagan. Buning badalini o'z jonlari bilan to'lagan. Biz bugungi mustaqillik, tinchlik, erkinlik sharoitida ularni eslashimiz, e'zozlashimiz ham qarz, ham farz", - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yoshlar- keng ko'lamli islohotlarni samarali amalga oshirishda hal qiluvchi kuch hisoblanadi. Aynan zamонавиyl bilim olib, ilg'or kasb-hunarlarni, innovatsion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallashimiz mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishda yetakchi o'r'in tutadi.

Tarixdan ma'lumki, ilm-fan sohasida ajdodlarimiz tomonidan beqiyos kashfiyotlar qilingan va ular umumbashariy tafakkur rivojiga katta hissa qo'shganlar. Biz ham allomalarimizning buyuk merosiga munosib davomchi bo'lishimiz lozim. Davlatimiz rahbarining "Yurtimizda yangi xorazmiylar, farg'oniyilar, beruniylar, ibn sinolar, mirzo ulug'beklar, navoiylarni tarbiyalab yetkazish – nafaqat vazifamiz, balki tarix va kelajak oldidagi muqaddas burchimizdir"<sup>1</sup> degan so'zlari barchamizning oldimizga qo'ygan maqsadimiz sari yanada ildamroq yurishimiz uchun turki bo'ladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev.Sh.M.Yangi O'zbekiston strategiyasi.-T.: "O'zbekiston",2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharririga bergan intervyusi.
3. Mirziyoyev Sh.M.Erkin va farovon,demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.: "O'zbekiston", 2017.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharririga bergan intervyusidan.



## XORAZM DAVLATI VA UNING YUKSALISHI

Egamberganova Oyulg  
Xorazm viloyati Xonqa tumani  
33- son maktabning Tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xorazm davlatining tashkil topishi, davlatning mustaqillik uchun kurashlari, hududlarining kengayishi va davlatdagi ichki ziddiyatlar haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** Xorazm, Urganch, hokim, Xorazmshoh, noib, Otsiz, qoraxitoy, Movarounnahr, Ma'mun, yurish, norozilik, hudud.

995-yilda Gurganch amiri Ma'mun ibn Muhammad Kat shahrini ishg'ol qilib, Xorazmning ikkala qismini birlashtirdi va Xorazmshoh unvoniga sazovor bo'ldi. Shu tariqa *afrig'iylar* sulolasasi barham topib, *ma'muniylar* hukmronligi boshlandi. Ko'hna Urganch Xorazmshohlar davlatining poytaxtiga aylandi. Qisqa davr ichida ma'muniylar Xorazmshohlar davlatini ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlantirdilar. Mamlakat *viloyat*, *shahar* va *qishloq* (qal'a)larga ajratilib boshqarildi.

*Xorazmshoh* davlatning oliv va mutlaq hokimi hisoblanardi. Gurganchda shoh qarorgohi, markaziy boshqarma – *devonxona* tashkil etildi. Uning tarkibida ziroat, savdo-tijorat, moliya, soliq, shahar va qishloqlarda osoyishtalikni saqlash uchun harbiy ishlar bilan shug'ullanadigan mahkamalar faoliyat ko'rsatgan.

Davlatning eng yuqori lavozimlaridan biri vazirlik – *xo'jayi buzruk* unvoniga ega bo'lgan. U devonxona ishlariga mas'ul bo'lgan. Harbiy safarlar vaqtida hukmdor nomidan davlatni idora etgan.

**Mustaqillik uchun kurash.** 1017-yilda *Mahmud G'aznaviy* tomonidan zabit etilib, o'z mustaqilligidan mahrum bo'lgan Xorazm 1040-yilda Saljuqiylar davlatiga qaram bo'lib qoladi. Saljuqiylar hukmdori Malikshoh o'z ma'murlaridan Anushteginni Xorazmga noib qilib tayinlaydi. *Anushtegin* vafotidan so'ng Xorazmda uning vorisi Qutbiddin Muhammad (1097– 1127) noiblik qiladi. Garchi u “*xorazmshoh*” unvonini tiklab, bunday nom bilan ulug'lansa-da, Saljuqiylar davlatining sadoqatli noibiligicha qolgan edi.

Xorazmning mustaqilligi Qutbiddin Muhammadning o'g'li Otsiz (1127–1156) nomi bilan bog'liqdir. Dastavval *Otsiz* turkman va qipchoqlarni o'ziga bo'ysundiradi. Xorazm bilan iqtisodiy jihatdan bog'liq bo'lgan Sirdaryo etaklari va Mang'ishloq yarimorolini egallaydi. *Otsiz* Kaspiy dengizi sohillaridan to Sirdaryoning o'rta oqimiga qadar bo'lgan yerlarda Xorazmshohlar davlatining poydevorini barpo etadi.

**Xorazmshohlar davlatining tashkil topishi.** *Otsiz*ning siyosatini uning vorislari Elarslon (1156–1172), Sultonshoh Mahmud (1172) va Takash (1172–1200) davom ettiradilar. XII asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr va Xurosonda siyosiy vaziyat yanada keskinlashadi. 1153-yilda Sulton Sanjarga qarshi ko'chmanchi o'g'uzlar isyon ko'taradilar. Buning oqibatida Saljuqiylar davlati keskin zarbagacha zaiflashib qoladi.

Dastavval undan Kichik Osiyo va Kermon ajralib ketadi. So'ngra Fors, Ozarbayjon va Xuroson viloyatlari mustaqil bo'lib oladi. Bunday siyosiy vaziyatda, shubhasiz, Xorazmning hukmronlik doirasi kengaytirilib, uning mustaqilligi yanada mustahkamlanadi. Xorazm davlati, ayniqsa, Otsizning nabirasi

Takash davrida juda kengayadi. 1187–1193-yillarda u Nishopur, Ray va Marv shaharlarini zabit etadi. 1194-yilda esa saljuqiylar sultonasi To'g'rulga qaqshatqich zarba berib, Eronni Xorazmga bo'ysundiradi.

**Davlat hududining kengayishi.** *Takashdan* so'ng uning o'g'li Alovuddin Muhammad (1200–1220) ham Xorazm davlatini kengaytirish siyosatini davom ettiradi. 1206-yildan boshlab Movarounnahrni qoraxitoylarning qaramligidan ozod etishga kirishildi. 1210-yilda Talos vodiysisida qoraxitoylar mag'lubiyatga uchraydi. Yettisuvgacha bo'lgan yerlar Xorazmshohlar davlati tasarrufiga o'tadi.

XIII asr boshida Xorazm juda keng maydonni egallagan buyuk davlatga aylangan edi. Uning shimoli g'arbiy va g'arbiy chegarasi Orol va Kaspiy dengiz sohillaridan janubi g'arbda Iroqqa qadar borar edi. Janubi sharqiy hududlari G'azna viloyatidan, shimoli sharqiy chegarasi esa Yetti-



suv va Dashti Qipchoqdan o‘tar edi. Sharqdagi bu ulkan davlatning poytaxti Urganch shahri edi. Hukmdor *Muhammad Xorazmshoh* esa “Iskandari soniy” deb ulug‘langan. Uning saroyida 27 hukmdor va ularning vakillari doimo itoatda bo‘lgan.

**Ichki ziddiyatlar.** Mamlakat qoraxitoylar zulmidan qutulgan bo‘lsada, mehnatkash aholining ahvoli yengillashmadı. Aksincha, xorazmshohlarning harbiy yurishlari, soliq siyosatidagi be-boshlik, amir va ma’murlarning jabr-u zulmi mamlakat fuqarolarining moddiy ahvolini g‘oyat og‘irlashtirdi, xalq xo‘jaligini yanada zaiflashtirdi. Bu, shubhasiz, shahar va qishloq aholisining Xorazmshohga qarshi noroziligini oshirdi. Natijada, 1210-yilda O‘tror aholisi, 1212-yilda esa samarqandliklar qo‘zg‘olon ko‘tardilar. *Muhammad Xorazmshoh* qo‘zg‘ololnarni shafqatsizlik bilan bostiradi.

Viloyat hukmdorlarining isyonlari, xalqning ko‘pgina tabaqalari noroziligi, qo‘shin va saroyda fitnalarning avj olishi davlatning beqarorlik holatini yaqqol ko‘rsatar edi. Shuning uchun ham bu davlat ko‘p yashamadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Muhammadjonov O‘zbekiston tarixi 7-sinf uchun darslik. T.: “Sharq”, 2017
2. Internet manbaalari.



## 1918-1939 YILLARDA ITALIYA

**Matmuratova Koramat**

Xorazm viloyati Bog‘ot tumanidagi  
38-sон мактабнинг тарих фани о‘қитувчisi

**Sultanova Zavrajon**

Xorazm viloyati Bog‘ot tumanidagi  
28-сон мактабнинг тарих фани о‘қитувчisi

**Annotatsiya:** Birinchi jahon urushi xalq xo‘jaligiga katta zarar keltirdi. Urush harakatlari natijasida Italiyaning shimoliy-sharqiy viloyati vayron bo‘ldi. Qishloq xo‘jaligi juda katta ziyon ko‘rdi.

**Kalit so’z:** moliyaviy, imperialism, tengsizlik, Militaristik, Smirna

Militaristik siyosatning avj oldirilishi va chet eldan olingen zayomlar natijasida mashinasozlik metallurgiya, ximiya sanoati kabi ayrim sanoat tarmoqlari rivojlanib, mamlakat agrar mamlakatdan industrial-agrar mamlakatga aylandi. Sanoat bir yoqlama taraqqiy qildi, davlat buyurtmalariga muvofiq, urush extiyollariga kerakli mahsulotlar ishlab chiqarildi. Tashqi savdo rivojlandi. Ishlab chiqarish va kapital konsentratsiyasi kuchaydi. «Onsaldo», «Fiat», «Breda» kabi konsernlar o‘sdi. Bu kabi iqtisodiy gigantlar Italiya sanoatining o‘zagini tashkil etgan avtomobilsozlik, qora metallurgiya, konchilik va kimyo sanoatida hukmonron mavqega erishdilar. Ayni paytda umumiy soni 120 mingga yetgan kichik korxonalar ham mamlakat iqtisodiy hayotida katta o‘rin egallardi. Ularda 800 mingdan ortiq ishchi ishlardi.

Nitti hukumati 8 soatlik ish kuni to‘g‘risida qonun chiqardi. Bir qancha tumanlarda narx-navo qisman pasaytirildi, siyosiy mahbuslarga amnistiya e‘lon qilindi, hatto yerlarning dehqonlar tomonidan egallanganligi ham tan olindi. Italiya davlati 1919 yilgi Parij sulk konferensiyasidan norozi bo‘ldi, chunki hududlar masalasida Antanta 1915 yilgi London shartnomasida bergen va‘dalarini bajarmagan edi. 1919 yil mayidayoq Italiya Turkiyaning janubiy-g‘arbiy qismini va birinchi galda Smirnani bosib olish maqsadida Turkiyaning g‘arbiy qirg‘oqlariga qo‘shin tushirdi. Bu esa Italiyaning xalqaro pozitsiyasiga yanada salbiy ta‘sir etdi.

Smirna masalasida Italiya va Gretsya o‘rtasida nizo paydo bo‘ldi. Italiya muvaffaqiyatsizlikka uchradi. 1919 yil sentabrida Antanta bilan Avstriya o‘rtasida imzolangan Sen-Jermen shartnomasiga muvofiq, Italiya faqat Trentino va Janubiy Tirolni oldi, Albaniyani boshqarish mandatiga ega bo‘ldi. Albaniyaning Vlora portidan Sarantada portigacha bo‘lgan dengiz qirg‘oq tumanlarini italyanlar okkupatsiya qilib turdilar. Ular Adriatik dengiz bo‘ylarida hukmonron bo‘lib olish va alban xalqining okkupantlarga qarshi kurashini bostirish uchun Albaniyaga qarshi harbiy avanturani rejalshtirdi, albanlarga qarshi Tripolitaniyaga qo‘shin yuborishga tayyorlandilar. O‘sha yillarda hukmonron doiralar inqilobi harakatlarni bostirish va agressiv siyosatni kuchaytirish maqsadida yangi reaksiyon partiya va tashkilotlar («Harakat ligasi», «Antibolshevistik xalq soyuzi» va boshqalar) tuza boshladi va Vatikanga tobora ko‘proq tayandilar.

Italiya burjuaziyasining eng ilg‘or va zarbdor kuchi siyosiy demogog, avanturist, sobiq sotsialist, renegat Benito Mussolini boshchiligidagi 1919 yil boshida tuzila boshlagan «fashist soyuzlari» va ularning qurolli fashist otryadlari edi. Terroristik totalitar tuzum ramziga aylangan «fashizm» atamasi Italiyada tug‘ilgan va u italyanchadan «bog‘lam», «dasta» degan ma‘noni anglatadi. Bu atama 1919 yilda, frontdan qaytgan sobiq askarlar o‘z manfaatlari himoyasi uchun «Fashi di combattimento» («Quroldoshlar uyushmasi») deb nomlangan tashkilot tuzgan paytda tug‘ilgan. Mussolining «milliy sotsializm» dasturiga ko‘ra, davlatning mohiyati o‘zgarishi, u mehnat va sarmoya o‘rtasidagi hamkorlik shakliga, «korporatsiya»ga aylanishi lozim edi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. Ц. Кин “ИТАЛЬЯНСКАЯ ТРАГЕДИЯ МАСОК”
2. Ц. Кин «МУССОЛИНИ И ПАПА»
3. «ОВРА» - фашистский застенок - Итальянки против войны и фашизма публикации 1936 г.



## HAZORASP QAL’ASI TARIXI

**Qo’chqorov Quvondiq Shakirovich**

Xorazm viloyati Hazorasp tumani

31-umumta’lim maktabi tarix fani o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xorazmning janubiy darvozasi hisoblangan Hazorasp qal’asining qurilishi, rivojlanish bosqichlari, qal’ani zabit etishga urinishlar va qal’ada savdo - sotiq masalalari haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so’zlar:** Hazorasp, qurilish, savdo-sotiq, Dev solg’an, bosqin, Xorazm, qamal, bozor, xon.

Xorazm vohasi hayotida juda katta rol o’ynagan Hazorasp qal’asi bir vaqtlar katta iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy markaz bo’lgan. Qal’aning qachon barpo etilganligi haqida aniq yozma ma’lumotlar saqlanib qolmagan. Hattoki, qadimshunos olimlarimizning ko’p yillik arxeologik tadqiqotlari ham birorta aniq xulosa chiqarishga asos bo’la oladigan dalilni bermadi. Shunga qaramasdan, zardushtiylik dinining dastlabki muqaddas olovi — “Aturaspend” yoqilgan qal’aning taxminiy yoshi — 3000 yilga yaqin degan fikrlar ilgari surilmogda.

Hazorasp qal’asining qurilishi haqida bir qator afsona va rivoyatlar mavjud. Xususan, qal’aning dastlabki davrdagi tarixi yaxudiy larning to’rtinchisi podshosi – Solomon (Sulaymon) nomi bilan bog’lanadi. Tarixiy manbalarga qaraganda Solomon podsho David (Dovud) ning o’g’li bo’lib, mil. old. 1015–975 yillarda, ya’ni 40 yil taxtda o’tirgan. O’ta bilimdon va tadbirkor Solomon o’z davlati sarhadlarini kengaytirgan. U Xorazmga kelgan vaqtida buloqlardan suv ichayotgan qanotli otlarni ko’rib hayratga tushgan. Shunda u Somon ismli deviga buloqlar suviga og’u solib, otlarni ushlab olish va qanotlarini kesib, xonakilashtirishni buyurgan. So’ngra podsho buloqlar (ular etnograf M.V.Sazonovaning ma’lumotlariga qaraganda 5 ta bo’lgan) atrofini baland devor bilan o’rab, qal’a barpo etishni buyurgan. Qal’aga esa Hazorasp, ya’ni “ming ot” deb nom berilibdi. Keyinchalik mahalliy xalqning tilida ushbu qal’a «Dev solg’an» nomi bilan yuritila boshlangan. Demak, o’tmishda to’qilgan afsona va rivoyatlarning biroz bo’lsada haqiqatga yaqin asosi bor deb qaralsa – Hazorasp qal’asining yoshi salkam 3000 yil ekanligi yaqqol ko’zga tashlanadi.

Etnograf va o’lkashunos tadqiqotchilar shaharning nomi afsonaviy otlar bilan emas, balki shu yerda qachonlardir yashagan «xazor» va «os» qabilalarining nomi bilan bog’liq degan haqiqatdan uzoq bo’limgan fikrni ilgari surmoqdalar. Chunki shu kungacha saqlanib qolayotgan va qal’a yaqinidan o’tadigan ariqning nomi ham «Hosoyop» deb aytildi va u bir necha ming yil ilgari os qabilasi yerlarini suv bilan ta’minlagan.

Hazorasp haqidagi dastlabki yozma ma’lumotlar Abu Rayhon Beruniyning «Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar» asarida keltirilgan. Mashhur tarixchi at-Tabariy 712-yilda arablar istilosiga uchragan Xorazmda uchta yirik shahar — Qot, Gurganj va Hazorasp bo’lganligini qayd qilgan. Yana bir yirik arab tarixchisi al-Istahriy qal’a yaqinidan bir nechta ariqlar oqib o’tadi va ulardan birining nomi Hazorasp ekanligini ta’kidlagan.

Hazorasp qal’asi Xorazmning janubiy darvozasi bo’libgina qolmasdan harbiy-strategik istehkom ham hisoblangan. Vohaning janubidan kelayotgan har qanday yovga dastavval shu qal’a qarshilik ko’rsatgan va juda ko’p hollarda Xorazmni istilo qilishga kuchi yetmasligini bilgan dushman shu yerdan orqaga qaytishga majbur bo’lgan. «Tarixi Jahongo’sha» nomli katta asar muallifi bo’lgan Juvayniy: «G’aznaviyalar davlati shohi Sulton Mahmud o’zining Xorazmga qilgan uchinchi yurishi vaqtida mustahkam Hazorasp qal’asini ikki oylik og’ir qamaldan keyingina bo’ysundirgan», — deb yozadi.

1219-1221 yillarda O’rta Osiyoni mo’g’ul-tatarlar istilo etib, bu yerda mayjud xorazmshoh anushtaginilar imperiyasini tor-mor qildilar. Ana shu bosqin arafasida Hazoraspda bo’lgan arab sayyohi Ibrohim ibn Yoqut quydagilarni yozgandi: «Bu olib bo’lmaydigan qal’a va juda chiroyli shahar. Uning atrofini orol kabi suv o’rab turadi. Qal’aga kirish uchun birgina yo’lak bor va u ham Xorazm tarafdan qilingan. Ularning orasidagi yo’l uch kunlik. U tekis yerda joylashgan, bozorlari va savdogarlari ko’p. Aholisi boy-badavlat».

Juvayniy mo’g’ullar bosqinidan keyingi shaharning ahvoli haqida to’xtalib, uning Xorazmning boshqa shaharlari qatorida vayron etilgani va suvgaga bostirilganini ko’rsatgan. Shundan so’ng, Hazoraspdagagi hayot bir necha o’n yillar davomida osoyishta izga tushmagan.



XIV asr boshlarida Xorazm vohasi iqtisodiy va ijtimoiy hayotida biroz jonlanish kuzatilgan. Oltin O’rda noibi Qutlug’ Temur va uning rafiqasi To’rabekxonim Urganchda bir necha yirik maqbara va minora qurdiradi. Bu vaqtida Hazorasp Chig’atoy ulusi tarkibidagi janubiy Xorazmning yirik shahri hisoblansada, taxt uchun kurashni kuchaytirayotgan amaldorlar uni tiklash va mustahkamlash ishiga o’ta kam e’tibor bergenlar. 1371-1372 va 1388-yillarda esa Hazorasp Amir Temurning harbiy yurishlariga duch keldi. Urganch kabi Hazorasp aholisining anchagini qismi Samarqand, Shahrisabz kabi shaharlarga olib ketildi.

1405-yilda sohibqiron Amir Temurning vafoti oqibatida Oltin O’rda lashkarboshisi Yedigey (Idiqu o’zbek) Xorazmning ko’pgina qismini istilo qildi. Shimoldan kelgan mo’g’ullar bu vaqtida Hazoraspga xuruj qila olmadilar. Shuningdek, Shohruh Mirzo va Ulug’bekning 1412-yilda Xorazmga yuborgan qo’shinlari ham zafarsiz orqaga qaytdilar. Bu davrda Hazoraspning Xorazm vohasini mudofaa qilishdagi roli ulkan bo’lgan.

Oradan yarim asr o’tib, 1463-1464-yillarda temurzoda Husayn Bayqaroning Xorazmga yurishlari vaqtida Hazorasp qal’asi voha aholisini himoya qilishda muhim rol o’ynadi (Mirxon). Shahar aholisining bunday jasorati Muhammad Shayboniyxoning 1505-yilgi harbiy xurujlari vaqtida ham ko’rsatilgan.

1511-1512 yillarda Xorazm xonligining shakllanishi jarayonida Hazorasp davlatning yirik iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy markazlaridan biri sifatida o’z mavqeni yo’qotmadi. Vohadagi yirik bekkilik ekanligini hisobga oлgan holda xonning eng ishonchli og’a-inilaridan biri bu yerga hokim qilib tayinlanardi. 1620-yilda shaharga kelgan hamda bozorlar va ulardagi savdogarlarning ko’pligini ko’rgan rus elchisi Ivan Xoxlov bu yerdagи hayot ancha osoyishta holatga o’tganligini ta’kidlagan.

Hazoraspning rivojlanishida yangi bosqich - XVIII asrning 70-yillaridan boshlandi. Shahar hokimi Muhammad Niyozi inoq tashabbusi bilan qal’aning devorlari qayta ta’mirlandi. 1825-1826-yillarda Hazoraspning yangi hokimi Rahimquli inoq buyrug’i bilan qal’ada qasr qurildi. Buxorolik ustalar va eronlik qullar barpo etgan ushbu imoratni o’z ko’zi bilan ko’rgan etnograf A.Kun saroy xonalarining ganch bilan ishlangani, shaharda 8 ta masjid, yana shuncha mакtab va madrasa, 400 ga yaqin katta-kichik do’kon-rastalar borligi, juma va yakshanba kunlari bozor bo’lib turishi haqida yozgandi.

1842-yilda Xorazmda bo’lgan rus diplomati G.I.Danilevskiy Hazoraspning Polvon kanalidan olingan Hoso arig’i bo’yida joylashgani, hokim Rahimquli inoq davrida qal’a devorlarining buzilgan joylari tiklangani haqida ma’lumot beradi. 1842-yilda Xiva xonligi taxtiga o’tirgan Rahimqulixon buyrug’i bilan Hazorasp qal’asi devorlari yana bir marta mustahkamlangan. Keyingi yillarda devonbegilar Muhammad Amin va Ibrohim vaqtida Hazorasp qal’asi atrofida yangi devor ko’tarildi. Endilikda shaharning shimoliy devorida 7 ta, janubida 6 ta, g’arbida 4 ta va sharqida 1 ta himoya minoralari ko’rinib turadigan bo’ldi.

Hazorasp qal’asi hokimining layoqatsizligi oqibatida 1873-yilgi ruslarning bosqini vaqtida aholi dushmanga yetarli darajada qarshilik ko’rsata olmadı. Xiva xonligining Rossiyaga bo’ysundirilishi va tashqaridan bo’ladigan xurujlarga chek qo’ylganligi natijasida Hazorasp qal’asining harbiy-strategik ahamiyati biroz bo’lsada pasaydi. Endilikda u vohanining janubiy qismidagi yerlarning muhim ma’muriy markazi sifatida iqtisodiy va siyosiy hayotda juda katta ishlarni amalga oshirishga imkon yaratdi.

Hazorasp bozorlarida o’lkaning ko’plab hududlaridan keltirilgan mollarni va savdogarlarni ko’rish mumkin edi. Shahar aholisining soni ortib bordi va nazoratning susayganligi oqibatida «Dev solgan»ning ichkari qismida juda ko’plab imoratlar qurila boshlandi. Natijada ko’p ming yillik ko’hna tarix guvohi bo’lgan ashyoviy dalillar imoratlar ostida, aniqlab bo’lmaydigan dara-jada qolib ketdi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi.
2. Abu Rayhon Beruniy, “Qadimgi halqlardan qolgan yodgorliklar”.
3. [www.xorazmiy.uz](http://www.xorazmiy.uz)
4. Qomus.info. Onlayn ensiklopediya.



## ХИВА ХОНИ МУХАММАД РАХИМХОН I ДАВРДАГИ ИСЛОХАТЛАР

Оллаберганова Озода Собиржоновна

Хоразм вилояти Янгиарик тумани

№20 сон мактаб 2 тоифа тарих ўқитувчиси

20 сон мактаб хуқуқ фани 1 тоифа ўқитувчиси

Рахимова Муяссар Нарбоевна

**Аннотация:** Ушбу мақолада Хива хони Мухаммад Раҳимхон I давридаги ўзгаришлар давлат бошқарувидаги ислоҳатлар ҳақида боради.

**Калит сузлар:** меҳтар, Олий Кенгаш, құшбеги, хужаш махрам, қози.

Мухаммад Раҳимхон ибн Аваз иноқ ибн Мухаммад амин иноқ (1775 -1825) ўзбек күнғиротлар сулоласидан Хоразм хони(1806-1825). Акаси Элтузархон вафотидан кейин таҳтга ўтирган (1806). Хива хонлигини бирлаштиришда ижобий натижаларга эришган бир қанча сиёсий иқтисодий маъмурий ислоҳатлар ўтказган. Хон саройи қошида доимий фаолият курсатувчи(девон) таъсис этилган. Мухаммад Раҳимхон I Хива хонлигини бирлаштиришда ижобий натижаларга эришган: бир қанча сиёсий, иқтисодий, маъмурий ислоҳатлар ўтказган. Мамлакатни бирлаштириш йулида бир қанча ишлар қылган. У Орол бўйи қорақалпоқларни бўйсундириш учун бир неча марта юриш қилиб 1811 йилда Тўрамурод сўфини енгиг бонликни мустаҳкамлаган.

Мухаммад Раҳимхон I бобоси Мухаммад Амин иноқ бошлаган Хива хонлигидаги халқларни бирлаштириш ишини муваффақиятли амалга ошириди. Унинг фармони билан ўзи раислигида. Олий Кенгаш тузилди. Кенгашнинг биринчи аъзоси хоннинг севикли ва ишончли кишиси Мухаммад Юсуф меҳтар, иккинчи аъзоси жуда ақилли, жасур, кўнгилчан ва илтифотли вазир Мухаммадиёр құшбеги бўлиб, хоннинг севикли ва ҳурматли акаси Қутлуғ Мурод иноқ ҳам кенгаш аъзоси эди. Хўжаш махрам кенгашда аъзо бўлмаса ҳам қатнашади. Унинг отаси Хуросондан асир олиб келинган ва Хивада мусулмончиликни қабул қылгач, уйланган. Хўжаш махрам урушдаги хизматлари учун озодлик мукофотини олган ва кейинчалик божхона бошлиғи бўлиб, бойиб кетган. У курдирган мадраса Паҳлавон Маҳмуд мақбарасининг шимолий ғарбида жойлашган.

Янги тузилган кенгашда турт ўзбек уруғининг ўйлобошчилари ҳам қатнашади. Кенгаш жума қуни хон саройининг кўриниш хонасида бўлади. Аввал овқатланиб, кейин муҳокама бошланади. Мухаммад Раҳимхон даврида ичимлик ичиш, банг чекиши қатъий таъкиқланган. Шахарларни ободонлаштириш, факирларни шод қилиш асосий мақсад қилиб қўйилган. Мажлислар тузилиб олиму фузалолар ва шоиру донишманлар билан китобхонлик кечаларини ўтказган. Унинг замонасида янги мадрасалар ва масжидлар қурилган, божхона ва бошқа фойдали муассасалар ишга туширилган. Мухаммад Раҳимхонни Хива хонлигига келган рус элчиси Н.Н.Муравьев Карский шундай таърифлайди: “ Мухаммад Раҳимхон I баланд бўйли, катта гавдали, нигоҳи ўткир, иродаси кучли, жасур ва тадбиркор бўлган, уни кучли от ҳам икки соатдан ортиқ қўтариб юра олмаган ”. У араб, форс ва туркий тилларда гапириб, ўқиб ва ёзиб билган учун халқ уни “Охун хон” деб атаган. Кам ухлаган, шахмат ўйнининг ишқивози, байрамларни айниқса хафта байрамларини бенихоя ҳурмат қылган. Кишиларни лавозимиға ёки келиб чиқишига қараб эмас, балки ишига қараб баҳо берган. Ўта тақводор одам бўлиб, ҳамма жойда қабристонлар зиёратини бажо келтириб юрган.

Мухаммад РаҳимхонI даврида Олий Кенгаш ва Кичик Кенгаш жорий қилинган. Лавозимларнинг 300тадан 100гача камайтирган. Бошқарув тизимини ихчамлаштирган. Солиқ йигиш тизимини мукаммаллаштирган. Йиғилган солиқларни тўғри тақсимлаган. Бева бечораларга ғамхўрлик қылган. Унгача тўпланган солиқлар кўпчилиги солиқ йиғувчи амалдорларнинг қўлида колиб кетган. Мухаммад Раҳимхон даврида эса солиқ тўлаш иши марказий ҳукумат қўлига ўтди. Ҳазинага фуқаролрдан тушган даромад ва ҳаражатлар маҳус дафтарларда қайд этилиб, хоннинг назорати остида бўлди. Эндиқида солиқнинг миқдори мулқдорларга қарашли экин майдоннинг ҳажми ҳамда ҳосилига қараб белгиланган. Бундан ташқари чегараларда божхоналар ташкил этилган. Юқоридаги барча чоралар тадбирлар хонлигидаги ички ва ташки савдонинг ривожланишига олиб келди.

Мухаммад Раҳимхон даврида харбий салоҳият ҳам анча ошди. Хива тарихчиси Юсуф



Баёнийнинг ёзишича, хоннинг мунтазам отлиқ қўшинлари 13 мингдан зиёд бўлган, ўзбек, туркман, ва қорақалпок хон қўшинининг асосий ўзагини ташкил этган. Навкарларга харбий хизматлари учун ер ажратиб берилган ва улар солиқлардан озод этилган. Рус элчиси Н.Муравьев ўз ҳисботида шундай деб ёзади: “бутунлай янги давлат барпо қилди дейиш мумкин. Эндиликда бу давлат Ўрта Осиёда энг кучли хонликлар жумласига киради”.

Мухаммад Рахимхон Кўнғирот элига широр билан бориб, қайтишда Хўжа элида хасталаниб қолади. Хивага келгач касали зиёда бўлиб, табибларнинг давоси фойда қилмай бир ярим ойдан кейин бақо оламига кетади. У 1825 йил вафот этган. Унинг қабри Пахлавон Махмуд мақбарасида жойлашган. Мухаммад Рахимхон хива хонлиги учун қилган хизматлари бенихоя катта. Унинг бошқарув ислоҳатлари, харбий ислоҳатлари ҳамда чегараларни мустахкаллаб Хива хонлигини марказлаштирган ва ривожланишининг янги поғонасига қўтарган.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

- 1) Йўлдашев М.Й. Хива хонлигидаги ер эгалиги ва давлат тузилиши Т.,1959й
- 2) Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар Т., Ўқитувчи 1994й
- 3) Муминов И. История Хорезма древнейших времен до наших дней Ф.1989г.



## ХИВАНИНГ МАШҲУР КИШИЛАРИ

Хударганова Назокат Фарходовна  
“Иchan-Қалъа” давлат музей-кўриқхонаси  
етакчи мутахассиси  
телефон: +998907372580  
[b.madyor@bk.ru](mailto:b.madyor@bk.ru)

**АННОТАЦИЯ:** Қадимги Хоразм илм – маърифат ва маданият марказларидан бири сифатида дунёга машҳур бўлғанлиги тарихдан маълум. Бу муқаддас диёрда яшаб ўтган Ал – Хоразмий, Абу Райҳон Беруний, Маҳмуд Замаҳшарий каби буюк алломалар жаҳон фани хазинасини бебаҳо дурдоналар билан бойитгандар. Мазкур мақола Хива шаҳрининг фахри бўлған Ал – Хоразмий ҳаёти ва фаолиятига бағишланган бўлиб келажакда шахримизга ташриф буюрувчи ёш авлод вакиллари ва сайёҳларда чуқур хурмат уйғотади.

**КАЛИТ СЎЗЛАР:** Қадимги Хоразм, Хива, геометрия, тирігонометрия, астрономия, топография, химия, минерология. – “Ал-китоб ал-муҳтасар фи ҳисоб ал-жабр вал-муқобала”.

Хива шаҳри ўзининг қурилиши, тарихий ўтмиши, меъморий обидаларининг яхлит тарзда сақланиб қолганлиги билан қадимиш шаҳарлар орасида алоҳида ўрин тутади, унинг ўтмишидаги тақдирни, меъморий обидалари дунёнинг энг қадимги маданий воҳа - Хоразмнинг тарихий маданий тараққиёти билан чамбарчас боғлиқдир.

Президентимиз Ш.М. Мирзиёев: “Буюк тарихда ҳеч нарса изсиз кетмайди. У ҳалқларнинг конида, тарихий хотирасида сақланади ва амалий ишларида намоён булади. Шунинг учун ҳам у қудратлидир. Тарихий меросни асрар-авайлаш, ўрганиш ва авлодлардан авлодларга қолдириш давлатимиз сиёсатининг энг муҳим устувор йўналишларидан биридир” деганди.

Хоразмнинг асл фарзанди, илм аҳлининг бобоколони Абу Абдуллоҳ (Абу Жаъфар) Муҳаммад ибн Мусо ал-Хоразмий, ал-Мажусий ал-Қатраббулий Хоразмнинг маданий марказларидан бири бўлмиш Хива шаҳрида 783 йилда оташпараст муғлар оиласида дунёга келди. Хоразм фан оламига кўпгина мутафаккирларни етказиб бера олган диёр бўлиб, бу ҳақида хоразмшунос олим С.П.Толстов шундай дейди: “Қадимий Хоразм фанининг Шарқ фани тарихидаги ўрни жуда муҳим. Хоразмнинг исломгача бўлған антик ва афригий даврини озгина биламиз. Аммо маданий ва моддий ёдгорликларни астойдир таҳлил қилиб айта оламизки, Хоразмда аниқ фанлар – геометрия, тирігонометрия, астрономия, топография, химия, минерология ва табий фанлар ўша даврдаёт юксак даражада тараққий этган... Хоразм кейинчалик араб халифалиги таркибиға киритилгач, хоразмлик олимлар тез орада шуҳрат қозонганлар ва “араб фани” деб аталган фаннинг яратувчилари орасида энг илғор ўринни эгаллаганлар”.

Бўлғуси олим болалик ва ўсмирлик йилларида бошланғич таълимни ватанида олиб, араб, форс, ҳинд ва юнон тилларини қунт билан ўрганди, бу тиллардаги китобларни мутолаа қилди ва эл назарига тушиб олим бўлиб етишди.

Бағдод халифаси Хорун ар-Рашид ўғли ал-Маъмунни 808 йилда халифаликнинг шарқдаги ноиби қилиб тайинлади, шаҳзода ал-Маъмун ноибликни пойтахти Марв (ҳозирги Мари) га келиб тезлиқда унга бўйсунувчи ўлкалар (Хуросон ва Мовароуннахр)да яшовчи олимлар ва шоирларни ўз саройида тўплаб “Мари олимлари йиғини”ни ташкил қилади. Кўпгина олимлар қатори ал-Хоразмий ҳам Марвга келади ва ўзининг самарали ижодига айнан шу ерда тамал тошини қўяди. Олим бу масканда замонасининг кўпгина олиму фузолалари билан танишади.

Ал-Маъмун отаси ўлимидан кейин 813 йилда ўзини халифа деб эълон қилди, Бағдодга қўшин юбориб ўз акаси халифа ал-Аминни таҳтдан туширди. 819 йилда бир гуруҳ сарой аҳли ва Марвда тўпланган олимлар билан Бағдодга халифаликни марказига келиб ўз давлатини мустаҳкамлаб, бошлаган хайрли ишларидан бири “Донишмандлик уйи” (“Байт ул-Ҳикма”) ни қайта ташкил қилиш ва кенгайтиришга катта эътибор берди. Бу илмий марказ қошида улкан кутубхона мавжуд бўлиб, унга халифаликнинг ҳамма жойидан фақат араб тилидаги қўлёзмалар эмас, балки юнон, форс, ҳинд, сурёний ва бошқа тилларда ёзилган қўлёзмалар ҳам келтирилар эди. Халифа ал-Маъмуннинг тиришқоқлиги ва олимларнинг сайъи-ҳаракатлари билан уларни асосий қисми араб тилига таржима қилинди ва йирик расадхона



қурилиши бошлаб юборилди. Дунёнинг турли бурчакларига илмий экспедициялар ташкил қилинди, ал-Маъмун бу илмий марказда ва халифаликдаги барча фанлар раҳбари қилиб ватандошимиз Мұхаммад ибн Мусо ал-Хоразмийни тайинлади.

VIII-IX асрларда араб халифалигининг пойтахти Бағдод –тарихий Мадинат ас-Салом ободонлашган, юксалган ва савдо-сотик ривожланган шаҳар ҳисобланган. Ал-Хоразмийнинг илмий фаолияти ана шу Бағдод шаҳрида ва Бағдод халифалари –ал- Маъмун (813-833), ал-Мұйтасим (833-842) ҳамда ал-Восиқ (842-847) даврларига тўғри келади. “Байт ал-ҳикма”да ал-Хоразмий билан бирга Марказий осиёлик машҳур олимлар ал-Фарғоний, Ҳабаш ал-Ҳасиб, Ҳолид ибн Абдумалик ал- Марваррудий, Яҳё ибн Абу Мансур, Аббос ибн Сайд Жавҳарий, Аҳмад ибн Абдулло Марвазий, Мұхаммад ибн Мусо ибн Шокир ва бошкалар ҳамда халифаликнинг барча вилоятларидан чакирилган энг яхши олим ва таржимонлар ҳам ишлаганлар.

Ал-Хоразмий математика, геометрия, астрономия, тарих, география ва бошқа фанларга доир кўплаб рисолалар ёзган. бизгача алломанинг 20-га яқин асари етиб келган. Уларни қуйида санаб ўтамиш:

- “Ал-китоб ал-мухтасар фи ҳисоб ал-жабр вал-муқобала” (“Алжабр ва алмуқобала ҳисоби ҳақида қисқача китоб”) ал-Хоразмийнинг бу асари номидан “алгебра” атамаси пайдо бўлган. Рисола XII асрда ёк лотин тилига таржима қилиниб, “Algorithmi” рисоласи номи билан бутун Европага тарқалган.

- “Китоб фи ҳисоб ал-ҳинд” (“Ҳинд ҳисоби ҳақида китоб”) Хоразмийнинг арифметикага оид ушбу рисоласини фақат биргина нусхаси лотин ча таржимаси сақланган. Ушбу рисолада ҳозир биз ишлатадиган бирдан тўққизгача бўлган рақамлар ва ноль ёрдамида исталган сонни ёзиш, улар билан арифметик тўрт амални бажариш, ўша рақамлар билан ифодаланган сонлардан квадрат илдиз чиқариш қоидаларини изоҳлаб берилган.

- “Китоб ал-жамъ ва-т-тафриқ” (“Қўшиш ва айириш ҳақида китоб”) ал-Хоразмийнинг иккинчи арифметик рисоласи мисрлик математик Абу Комил (850-930) қўлида сақланган ва ўзининг алгебраик рисоласида бир парчасини тўлалигича келтирган.

- “Зиж ал- Хоразмий” ёки “Кичик Синдхинд” Хоразмийнинг астрономик асари. Европа мамлакатларида “Астрономик жадваллар” номи билан машҳурдир. Асарни лотин тилига 1126 йилда Аделард Бат таржима қилган.

“Китаб сурат ал-арз” “Ернинг сурати” ёки “География”) Хоразмийнинг географик асари, яратилишига шу даврда Богдод халифалигига ўтказилган бир қатор географик ишлар, жумладан, Хоразмий бошлиқ 70 нафар олим 840 йилда яратган “Маъмун дунё ҳаритаси” номли атласнинг тузилиши ҳамда кўпгина юнон олимларининг шу мавзуга оид асарларининг таржима қилиниши каби омиллар сабаб бўлган.

- “Китоб ал-амал ал-астурлаб” (“ Астурлоб ясаш ҳақида китоб”).

- “Зара иф мин амал Мұхаммад ибн Муса ал Ҳуаризми ма рифа ас-самт би-л-астурлаб” (“Мұхаммад ибн Муса ал Хоразмийнинг астурлоб ёрдамида азимутни аниқлаш ҳақида ажойиб ишлари”).

- “Амал асса ат фи басит-ар-рухама” (“Мармар тахта юзасида соатларни ясаш ҳақида рисола”).

- “Ма рифа тақвим самт ал-қибла айи баладин шита” (“Хоҳлаган шаҳар қибласи азимутнинг йўналишини аниқлаш ҳақида”).

- “Тулӯз азимутини аниқлаш ва соат квадранти ҳақида рисола”).

- “Рисала фи ма рифа авқат ас-салат” (“Намоз вақтларини аниқлаш ҳақида рисола”).

- “Мукхула, туғир, бинкам ва дуласи деб аталувчи соат асбоблари ҳақида рисола”.

- “Рисала фи мар и ҳилал” (“ Ҳилол қўриниши ҳақида рисола”).

- “Мақала фи-истиҳраж та рих ал-йаҳуд ва а йадиҳим” (“Яҳудийлар календари ва байрамларини аниқлаш ҳақида рисола”).

- “Китаб ат-та рих” (“Тарих китоби”) ўз давридан олдинги вақтларда битилган тарих китобларининг йиғиндиси ва ўз даври тарихи билан мужассамлаштирилган рисола.

Буюк математик ватандошимиз ал-Хоразмий 850 йилда ўз ижод маскани бўлмиш Бағдод шаҳрида оламдан ўтган. Унинг илмий асарлари юнон, лотин, немис, инглиз, голланд, рус тилларига қайта -қайта таржима қилинган, ал-Хоразмийнинг илмий фаолиятига буюк олим Абу Райхон Беруний, шоир ва математик Умар Хайём юксак баҳо берганлар. Олимнинг илмий мероси ҳамон ўз қимматини сақлаб, авлодлар олқишига сазовор бўлиб келмоқда.



Олимнинг 1200 йиллик тўйи жаҳон жамоатчилиги билан биргаликда Хива шаҳрида 1983 йилда нишонланди. Ҳозирги кунда мамлакатимиздаги бир талай илмий ўқув даргоҳлари, кўчалар олимнинг номи билан аталади.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Мирзиёев, Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз / Асарлар. 1-жилд. — Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2017. – Б. 29.
2. Хива – очик осмон остидаги музей. — Т., 1982.
3. Ал Хоразмий географияси. — Т.: “Фан”, 1983.
4. Абдурасулов А. Хива. — Т.: “Ўзбекистон”, 1997.
5. Хива – минг гумбаз шаҳри. — Т., 1997.
6. “Хива – шарқ гавҳари”. /Журнал. 2001.



**TARIX FANLARINI O'QITISHDA MANBALARGA E'TIBOR VA ULARDAN  
O'QUVCHILAR BILIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA UNUMLI  
FOYDALANISH**

**Mavlonova Dildora Xabibullayevna**

Namangan viloyati Chortoq tumani

28-umumta'lim maktabining tarix va

tarbiya fani o'qituvchisi

Telefon:+998972120811

**Anotatsiya:** Ushbu metodik tavsiya sifatida yozilgan maqola tarix fanini o'qitishda tarixiy-badiiy asarlarni o'rni va o'quvchilarda o'rganilayotgan davr, tarixiy shaxslarni tasavvurlarini kehgaytirishga qaratilgan muhim manbalar asosida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** Abdujalol Rahim. Abu Ali ibn Sino, Odil Yoqubov . Ko'hna dunyo, Odil Yoqubov. Ulug'bek xazinasi , Turg'un Fayziyev Temuriy malikalar, Temur tuzuklari.

Tarix fanini o'rganishda eng asosiy manbashunoslik yo'naliishi hisoblanadi.Tarixni o'rganishda manbalar ikki turli bo'lishi moddiy manbalar – o'tmishda insonlar qo'li bilan yaratgan mehnat qurollari, ov qurollari, turli xil buyumlar tushunsak, yozma manbalar o'z nomi bilan yozib qoldirilgan manbalarni tashkil etadi.Albatta yozma manbalar moddiy manbalarga nisbatan ancha ishonchli manbalar bo'lib, lekin moddiy manbalar ham tasavvurni boyitishda ahamiyati beqiyos hisoblanadi.Darslarimizda biz asosan yozma manbalar orqali ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Turli hil muzeylarga sayohatlar uyushtirganimizda esa tasavvurlarimizni yanada boyitamiz.Bugungi e'tiborimizni jalb etadigan manbalarimiz esa yozma manbalar asosida yozilgan adabiy-tarixiy asarlar haqida.Darslarimiz mavzulariga mos adabiy asarlar o'qish bilan o'quvchilar va albatta eng avvalo o'zimizni ham tasavvurimiz yanada kengayadi.

Qadimgi dunyo tarixini o'rganganimiz paytlarida qaysi manbalar orqali tushunchalar hosil qilishimiz bilan o'quvchilar aqliy salohiyatini oshirishimiz mumkin. Birinchi navbatda O'zbekiston tarixi boyicha yozma manba "Avesto"dan foydalanib tushuntirsak, qolaversa bu davr haqida turli filmlar ishlab chiqilgani ko'rgazmalarimizni yanada jlonlantirib beradi.Biz asosan 7-sinf darsliklaridan boshlab, bo'yicha ishonchli adabiy manbalarga egamiz va bulardan foydalanishimiz tarixda chuqur anglashlar olishimizga yordam beradi.Ayniqsa, allomalar hayotiga oid badiiy kitoblarni o'quvchilarga manba sifatida foydalanish keng tushunchalr uyg'otadi.Bu manbalar to'liq to'g'ri deb o'rgatish emas, o'sha davr muhitini xis qilsagina o'quvchilarda vatanparvarlik, bugungi kundagi ta'lim olishga yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanishga o'quvchida ma'sulyat uyg'otganini koramiz.Bunday badiiy adabiyotlarni o'qib o'quvchilarga yetkazish esa o'qituvchini so'zlarini takrorlanmas va ma'lumotlarga boy qiladi. Bu usulda o'z darslarimda foydalanib, so'zlab bergenimda o'quvchilarim o'sha davrda yashab kelgandek, hayotizni so'zlagandek gapirdingiz degan so'zlarni o'quvchilardan eshitish meni yana ana shunday adabiyotlar topib o'qib yetkazib berishga undaydi.

Yaqinda o'qigan buyuk alloma Abu Ali ibn Sino haqida adib Abdujalol Rahimni asarini o'qib o'quvchilarga bu haqida so'zlab berishim, o'quvchilarda kitobga bo'lgan qiziqishlarini uyg'ota organimdan yana bir maqsadimga erishda qadam tashladim.Asarda Ibn Sinoni tort yoshidan boshlab ilmga behisob qiziqishlari, yeti yoshda Qur'oni Karimga tavsirlari haqida fikrlarini bayon eta olishi, eng murakkab bilimlardan fiqiq-islom huquqiga qiziqib o'rganishni bishlagani bu yozuvchinig badiiy to'qimasi emas balki, tarixiy manbalar asosida keltirgan ma'lumotlardir.O'quvchilar bu asardagi ma'lumotlarni o'qib o'rgangandan keyin, ular uchun bugungi zamonning eng yoqimli ne'mati kitoblarni xoxlagan mavzuda, xoxlagan ko'rinishda topa olishlari , o'sha davr matolaa qiluvchilarni orzusi ham bo'limganini xis qilib, kutobxona tamonga tez-tez tashriflarini kuzata boshladim.Mamlakatdagi turli taxlikali xolatlar Ibn Sino va Beruniyning sargardonlikda bo'lsa ham, insonlar uchun foydalil ilmlar bilan shug'ullanishga harakat qilganliklarini o'qishlari esa o'z-o'zidan ota-onalari "bolam o'qisa bo'ldi" deb yaratib berayotgan sharoitlarga munosib javob berishga harakatlardagi o'zgarishlarni ko'ra boshladim. G'arb psixologlarini kuzatuvlari asosidagi xulosalardan kelib chiqib, farzandingiz siz uchun oyna siz unda kitob o'qishni shakllantirmoqchimisiz, uni ko'z oldida shunday harakatlarni shakllantiring .Farzandingizga kitob o'qi deb dakki bergandan ko'ra bu holat tez va samarali foya berib, har tamonlama oilangiz bilan



rivojlana borayotganingizni xis qilasiz.

Odil Yoqubovning “Ko’hna dunyo” asarida Beruniy bobomizning fitnzhilar tomonidan zindonband qilinganliklari, sovuq va zax xonalarda ham ijoddan to’xtamaganliklari o’quvchilarda alloma degan so’zga yetishish uchun yashash tarzining, zamon zaylinig ahamiyati yo’q bo’lganini xis qilib, chin ma’noda allomalarga munosib avlod bo’lishga harakat qila boshlashdi. Odil Yoqubovning yana bir asari “Ulug’bek xazinasi”ni o’qigan o’quvchilar esa, xazina behisob oltin kumushlar emas, balki vaqtida olingan ilmlar ekanligi haqida suhbatlar olib borib o’qib ulgurmagan o’quvchilarni qiziqishlarini ortirishayotganini, ular ham fikrlari allomalardek teranlashayotgani ko’rib, yana yangi maqsadlar qo’yib darslar o’tishga bo’lgan ishtiyoqingizni oshiradilar.

Endigi navbat buyuk bobomiz Amir Temurga nisbatan haqiqiy xurmat va xavas uyg’otishga harakat boshlaganmiz. Turg’un Fayziyevning “Temuriy malakalar”, “Temur tuzuklari” asarlarini mtoala qilib fikrlar almashib bilimlarimizni mustahkamamoqchimiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tarix sahifalarini o’rganishda tarixga doir badiiy adabiyotlarni o’quvchilar bilan birga o’rganishimiz yuqorida keltirib o’tilgan juda ko’p ijobiy xilqatlarni farzandlarimiz xarakterlarida shakllanishiga olib boruvchi mukammal ilmlardandir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdujalol Rahim. Abu Ali ibn Sino
2. Odil Yoqubov . Ko’hna dunyo
3. Odil Yoqubov . Ulug’bek xazinasi



ABU ALI IBN SINONING – TARIXIY , ADABIY, DINIY, ILMIY MEROSINI  
O’RGANISHDA METODIK TAVSIYALAR

Xolisova Obidaxon Rahimovna

Namangan viloyati Norin tuman

40-maktabning tarix fani o’qituvchisi

Telefon:+998999082169

quyosh0817@gmail.com

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk alloma Abu Ali ibn Sinonig faqat tibbiyotga emas juda ko’p bilimlar xazinasiga ega bo’lgani va pedagoglarni bilim berishlaridanima uchun alloma bo’lganliklarini yoritishga doir tarixiy, ilmiy, badiiy adabiyotlardan foydalanib yozilgan.

**Kalit so’zlar:** Nuh ibn Mansur, Husayn, al-Qumriy, Zakariyo ar-Roziy, Arestotel, Platon, Ptolamey, Gippokrat, Galen, Evklid. Arestotel, Platon, Ptolamey, Gippokrat, Galen, Evklid

Abu Ali ibn Sino ismini eshitganimizda tibbiyot bo‘yicha misli ko‘rilmagan darajada meros qoldirgan buyuk alloma xayolimizga keladi. Bugun biz Ibn Sinoni faqat tibbiyotga behisob hissasi haqidagina emas balki, tarix, din, bugungi kungacha uning Alloh tomonidan in’om etilgan noyob qobiliyati, xotirasi asosida yozib qoldirilgan buyuk meroslari haqida ham to’xtalib o’tmoqchimiz.

Abu Ali ibn Sino asli Buxoroning chekka bir qishlog‘i – Afshonada tug‘ildi. Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda otasi Abdulloh ibn Hasan yoshligida ko’p qiyinchiliklar ko‘rib, chamasi qirq yoshga etgandagina Nuh ibn Mansur saroyida qo‘nim topadi. Onasining ismi Sitorabonudir. Ibn Sino ota-onasining to‘ng‘ich farzandi bo‘lib, uning asli ismi Husayndir. Uni bu ism bilan oila a’zolari va tibbiyotdagagi eng yaqin ustozи al-Qumriygina atashar, zamondoshlari, mahalla-ko‘y ichida Abu Ali degan nom bilan mashhur bo‘ldi. Husaynning o‘zidan besh yosh kichik Mahmud ismli jigargo‘sashi bo‘lib, u akasidan ilmg‘a qiziqish borasida tamomila aksi bo‘lgan. Yoshligida ancha o‘yinqaroq, beg‘ubor Mahmud otasinig vafoti, zamonning alg‘ov- dalg‘ovli ishlaridan ancha sergak tortib, otasidan qolgan yer va bog‘larni obod qilishga bel bog‘ladi.

Abu Ali yani, Husayn esa tamomila o‘zgacha bir zehnli ekanligi ota-onasi judayam erta bir yoshligidayoq anglashdi. Ibn Sinoning tili judayam erta bir yoshligidanoq to‘liq va ravon ekanligi, yaqinlari o‘git va so‘zlarini tushunib yod olishi ularni ham hayrat, ham biroz qo‘rquvga ham soldi. Uning ota-onasiga bergen savollari bir-ikki yoshli bolalarning fikrlari emasligini noyob iste’dod sohibi ekanligini his qilishar edi. Uch yoshidan boshlab, otasidan kitob o‘qishni o‘rgatishini iltimos qiladi va o‘rgangan ta’limini shunchaki yod olmay bilimlari haqida fikrlarini ayta olishi, otasini shoshirib qo‘yadi va unga munosib ustoz yollashga jazm etadi. Va ayriliq og‘ir bo‘lsada, Sitorabonuning ota-onasi bilan qo‘shni bo‘lib yashab turgan Abu Alining oilasi ulardan ancha yiroqqa Buxoro- Tangri jamoli nomi bilan mashhur bolgan shaharga ko‘chishdi. Bu ko‘chishning asosiy sababi esa, bilimga chanqoq Husaynning ravnaqini kozlab edi. Abu Alining otasi, bobo va buvisidan keyin ilk ustozи Abdulvahhab ibn Aliga o‘qish, husnihat ilmini yanada chuqurroq o‘rgandi. Dastlab, ustozи Abdulvahhabga hali judayam yosh ko‘ringan Abu Ali birgina suhbatdayoq uni ko‘rinishi va yoshiga nisbatan ancha bilimdobligini anglagan bo‘lsa, darslar boshlangandan keyin esa, shogirdining ba’zi savollari u hech o‘ylamagan bilimlar haqida ekanligini angladi. Endi besh yoshli Husayn bilan ustozи savollarga javob berishda hamkorlikda izlanishlar, noyob kitoblardan tibbiyot bo‘yicha ham saboqlar o‘rganishardi. Tibbiyotda o‘rgangan bilimlарini yoshgina Abu Ali hayvonlar va o‘zida sinab ko‘rishga harakat qilar, ulardagи ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rib esa bilim olishga ishtiyoqi yanada ortib borardi. Ustozи o‘zidagi bor bilimlarni o‘rgatgach, Abu Alining otasiga uni buyuk alloma bo‘lishiga ishonchi komil ekanini, unga Qur‘on va uning tavsiri haqida bilganlarini o‘qitib ulgurganini, endi esa uni fiqh ilmini o‘rganishi joizligini aytadi. Otasi Abdulloh o‘g‘li Husaynning faqat ilm bilan mashg‘ulligidan, katta qalin kitoblarni ham bir-yarim kunda mutolaa qilib, bu to‘g‘rida otasi, ustozlari fikr almashganini ko‘rib bir behad sevinib Allohga hamd sanolar aytса, bolalar bilan hech o‘ynamagani, bolaligi o‘tib ketayotganidan ham qayg‘urardi. Otasini haqidagi tarixiy manbalarning birida shunday esga olingan, bozorga aylantigani ilk bor olib borgan otasi Husayn bilan nayrangboz ya’ni, masharabozlar o‘yin ko‘rsatayotgan tomoshagohga borishadi, ilon o‘ynatuvchi ilonbozning tasodifan qo‘lidan nayi tushib ketib iloni qochishga harakat qiladi, vaholanki ilonbozni o‘zi ham iolnni ushlab idishga solishdan qo‘rqib o‘zini chetga olib, qiy-chuv bo‘lgan mahalda Abu Ali borib ilonni bo‘g‘zidan ushlaydi va idishga



soladi.Bundan atrof to‘la olomon va otasi hayratda boqishadi.Shunda u otasiga yo‘l-yo‘lakay ilon mast qilguvchi dori tasirida bo‘lgani, oddiy zaharsiz cho‘l iloni ekanini aytib berib yanada hayratini oshiradi.Yana bir voqeada, Afshonaga buvi va bobosini ko‘rishga kelgan Abu Ali ularning uyidagi itlarini oqsoqlanib yurayotganini ko‘rib, oyog‘ga lat yegan joyiga malham quyib, tahtakach bilan boylab bir fursat o‘tgach yaxshi bo‘lib ketgani haqida ham yozib qoldirilgani uni yoshligidan tibbiyotga behisob qiziqishi bo‘lganidan dalolat beradi.Ibn Sino tibbiyot bo‘yicha ustozи al-Qumriy shogirdining ilohiy tafakkurga ega ekanligiga judayam ko‘p guvoh bo‘lgan.Ular yashagan davr ancha alg‘ov-dalg‘ov kunlarga to‘g‘ri keldi.Shunday bo‘lsada, ilmga benihoya qiziqishi katta bo‘lgan Ibn Sinoga Alloho ni o‘zi niyatlarida yetishiga yordam berdi.Ustozи al-Qumriy bu paytda hukmronlik qilgan Nuh ibn Mansur saroyida saroy tabibi lavozimida ishlashi, podshohning tuzalmas kasallikka chalinishi, uning dardiga esa Ibn Sinoni davo topishi, saroydagi judayam kam sonli ayonlarga ruhsat berilgan, noyob kutubxonaga kirish uchun ruhsat berilishi faqat uning o‘ziga yoki kimlarnidir dardini davolashgagina foydasi tegmadi,balki to‘satdan Buxoroga bostirib kelgan Qoraxoniylar qibbatbaho saroy kutubxonasiga o‘t qo‘yilishi, bu kutubxonadagi kitoblarni yo‘q bo‘lib ketmasligiga Ibn Sinoning noyob xotirasi sabab, bu yerdagi qimmatbaho kitoblarni hayoti davomida yozib qoldirishga tuyassar bo‘ldi.Bu kutubxonadagi eng noyob kitoblardan biri milodiy 865-925- yillarda Iroqning Bag‘dod shahrida yashab o‘tgan mashhur tabib Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziyning noyob qo‘lyozmalari qayta tiklashga harakat qildi. “Tib qonunlari” asarida ham bir qancha ma’lumotlar keltirilgan.

Abu Ali ibn Sino sharq olimlarining asarlari bilan bir qatorda yunon faylasuf va tibbiyotga oid asarlar yozgan oilmlar ya’ni, Arestotel, Platon, Ptolamey, Gippokrat, Galen, Evklid kabi buyuk namoyondalarini o‘zining g‘oyibona ustozlari deb bildi.Ularning asarlaridan ma’naviy ozuqa ola bildi. Alloma Abu Rayhon Beruniy bilan ham yozishmalar olib bordi, hamkor va hamnafas bo‘lishdi, fikrlar almashib turishardi.

Ibn Sino o‘z davrida faqat tibbiyot bilan shug‘ullanmay, shuncha ilm bilan birga kitoblardan nusxa ko‘chrish ishi bilan ham shug‘ullandi.U o‘z davri kishilari o‘rtasida “giyohlar bilan so‘zlashuvchi tabib” degan nom bilan ham mashhur bo‘ldi.Eng qiyin ilmlardan bo‘lgan fiqh-diniy huquq bilimdoni, arab tili gramatikasi bo‘yicha ham, tarixiy ma’lumotlarni ham adabiy meros sifatida yozib qoldirdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Abu Ali ibn Sino alloma darajasiga eng ko‘p kitobga bemisli mehr qo‘ygani, har bir asardagi olgan bilimlarini hayotga tadbiq qila olishi bilan erishdi. Buyuk allomalar qoldirgan adabiy meroslarga qancha ko‘p nazar tashlasak shuncha bilimlarimiz oshadi, saodatli hayotga erishishimzda ularning hayot yo’llari va qimmatli manbalari juda ham kerakligini anglaysiz.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yhati

1. Abdujalol Rahim. Abu Ali ibn Sino. “Kamalak” nashriyoti. Toshkent-2019.
2. Internet sayt.Ziyonet.



## АЛИШЕР НАВОЙ – ЖАҲОН МАҲНАВИЯТИНИНГ БУЮК СИЙМОСИ

Курбанов Мердан Кадирбаевич  
Қорақалпоғистон Республикаси Тахиатош тумани  
22-сонли умумий ўрта таълим мактабининг  
тарих фани ўқитувчиси  
+99899 0730406

**Аннотация:** Мақолада жаҳон маҳнавиятининг буюк сиймоси, буюк аллома Алишер Навоийнинг ҳаёти ва фаолияти ҳусусида сўз боради.

**Калит сўзлар:** Темурийлар, Хурасон, Ҳирот, Ҳамса, девон, вазир, тарих, тасаввуф, адабиёт.

Темурийлар даврида Ўрта Осиёда марказлашган давлатнинг ташкил топиши ва илм-фан, маданиятнинг гуркираб яшнаши натижасида янги уйғониш даври шаклланди. Ушбу даврда жаҳон илм-фани, маданияти ва санъат соҳалари тараққиётига беқиёс ҳисса қўшган буюк алломалар етишиб чиқди. Шундай буюк мутафаккирлардан бири Низомиддин Мир Алишер Навоий саналади.

Буюк аллома, шоир ва давлат арбоби Мир Алишер Навоий 1441-йилнинг 9-февралида ўрта асрлардаги Хурасон ўлкасининг маркази Ҳирот шаҳрида туғилган. Буюк бобокалонимиз ҳаёти ва ижоди ҳақида тарихий манбаларда, шунингдек алломанинг ўз асарларида маълумотлар сақланиб қолган. Алишер Навоийнинг оиласи Темурийлар хонадонига яқин, ўз юртида обрўли ва нуфузли хонадонлардан бири бўлган. Алишер Навоий зиёли ва маърифатли оила муҳитида тарбия олган. Алломанинг болалик ва ёшлик йиллари Темурий шаҳзодалар ўртасидаги доимий сиёсий келишмовчиликлар сабабли турли ўлкаларда ўтган.

Алишер Навоий ёшлигидан илм-фанга чанқоқ бўлиб, замонасининг энг буюк уламоларидан таҳсил олишга ҳаракат қиларди. Унинг илк устозлари Мир Сайид Қобулий ва Муҳаммад Али Фарибийлар саналган. Шунингдек, у ўша даврнинг буюк алломаларидан Мавлоно Лутфий ва бошқалар билан суҳбатда бўлиб, улардан билим ва кўнималар олди. Алишер Навоий адабиёт, тарих, тасаввуф, фалсафа каби соҳаларни мукаммал ўрганди. Айниқса, унинг адабиёт соҳасида эришган ютуқлари катта аҳамиятга эга. Алишер Навоий бутун ҳаётини туркий тил ва туркий адабиётнинг мавқейини кўтариш, унинг имкониятларини намоён қилишга ҳаракат қилди ва бу соҳада мисли кўрилмаган ютуқларга эришди. Шу билан бирга, давлат арбоби сифатида Хурасонда Темурийлар давлатининг равнақи учун хизмат қилди.

Алишер Навоийнинг ҳаёти ва фаолияти ҳақидаги тарихий маълумотларга назар соладиган бўлсак, у 1456-йили дўсти Ҳусайн Бойқаро билан биргаликда Машҳад шаҳрига кетади. Ўша йилларда Алишер Навоий Хурасонда шоир сифатида кенг танила бошлади. 1466-1468-йилларда Мовароуннахрнинг маркази Самарқандда ҳаёт кечирди ва бу ерда ҳам ўша замоннинг буюк алломаларидан дарс олади. 1469-йилга келиб Хурасонда Ҳусайн Бойқаро ҳукумдорлиги ўрнатилди ва у Алишер Навоийни ўз ёнига чақириб олди. Кейинчалик у давлат ишларига жалб этилди, аввал муҳрдор лавозимида фаолият юритди, сўнг 1472-йилда вазир лавозимига тайинланди. 1487-йилда Астрободга ҳоким этиб тайинланди. Давлат ишларида фаолият юритганда у ҳар доим жамиятда ҳақиқат ва адолат мезонларини қарор топдиришга ҳаракат қилган.

Тарихий манбаларга назар ташласак, Алишер Навоий давлат ишларида жуда фаол ва масъулияти шахс сифатида танилган. У фаолият юритган даврда юрт ободонлиги, ҳалқ манфаатлари ва илм-фан тараққиёти йўлида жуда кўплаб ишлар амалга оширилди. Тарабалар учун «Ихлосия» мадрасаси, дарвешлар учун «Халосия» хонақоҳи, беморлар учун «Шифоия» шифохонаси, масжиди Жомеъ ёнига Қориҳона («Дор ул-хуффоз») қурилди [Маҳнавият юлдузлари, 209-бет]. Шунингдек, бевосита Алишер Навоий ҳомийлигига жуда кўплаб шаҳарлар обод қилинди, каналлар ва ариқлар қазилиб, кўприклар қурилди.

Алишер Навоий давлат ишларида фаолият олиб бориши билан бирга, ўз ижодини ҳам тўхтатиб қўймади. Аллома туркий ва форсий тилда жуда кўплаб асарлар ёзди. 1476-йилда форс тилида машхур «Тухфатул-афкор» асарини ёзди. Ўша даврда Шарқ адабиётида «Ҳамса» яратиш мақсадида жуда кўплаб шоирлар ҳаракат қилишган эди. Лекин, бундай



шарафли ишга фақатгина саноқли алломалар эришган холос. Алишер Навоий 1483-йилга келиб ўзининг «Ҳамса» асарини ёзишга киришди ва қисқа муддат ёзиб тамомлади. Беш достонни ўз ичига олган бу асар 50 минг мисрадан кўпроқ эди. Шарқ адабиёти тарихида фақатгина тўртда аллома томонидан «Ҳамса» асари ёзилган. Жумладан, Низоми Ганжавий, Хусрав Дехлавий, Абдураҳмон Жомийлар форс тилида ушбу асарни ёзишган бўлса, Алишер Навоий ўз «Ҳамса» асарини туркӣ тилда ёзган.

Алишер Навоий «Ҳамса» дан ташқари у яратган шеърлардан иборат девон уч марта тузилган. Биринчиси (1466-1482) «Бадоеъ ул-бидоя» («Баъдийлик ибтидоси»), иккинчиси (1482-1492) «Наводир ун-нихоя» («Бехад нодирликлар»), учинчиси ва энг мукаммали (1492-1499) «Хазойин ул-маоний» («Маънолар хазинаси») девонидир [Шамсутдинов, Каримов, 467-бет]. Бу девонларнинг барчаси бугунги кунгача сақланиб қолган.

Алишер Навоийнинг бир қатор асарлари тарихий аҳамиятга эга саналади. Хусусан, 1488-1501-йиллар давомида ёзган «Тарихи мулку ажам» («Ажам шохлари тарихи») асарини қатор тарихий манбалар асосида ёзди. 1491-йили ёзилган «Мажолис ун-нафоис» номли тазкирасида XV асрда яшаб ижод қилган 450 дан ортиқ адиллар, шоир ва ёзувчилар ҳаёти ва фаолияти ҳақида тарихий маълумотлар келтирилган. Алишер Навоий томонидан ёзилган «Тарихи анбиё ва ҳукамо» («Анбиёлар ва ҳакимлар тарихи»), «Зубдат ут-таворих» («Тарихлар қаймоғи») каби асарлар ҳам шулар жумласидандир.

Алишер Навоий юртимиз тарихида алоҳида ўринга эга буюк тарихий шахс ва мутафаккир адаб саналади. Бутун ҳаёти ва ижодий фаолиятини ҳалқ манфаатлари йўлида сарфлаган буюк аллома 1501-йилнинг бошида вафот этди. Бугунги кунда буюк мутафаккирнинг ҳаёти ва ижоди, асарларини ўрганиш мақсадида жуда кўплаб эзгу ишлар амалга оширилмоқда. Унинг хотирасини абадийлаштириш мақсадида қатор давлат мукофотлари, ташкилотлар, олий ўқув юртларига улуғ аллома номи берилган ва турли шаҳарларда жуда кўплаб ҳайкаллари ўрнатилган.

### Фойдаланилган адабиётлар

1. Маънавият юлдузлари (Марказий Осиёлик машҳур сиймолар, алломалар, адиллар). Т., Абдулла Қодирий номидаги Ҳалқ мероси нашриёти, 1999.
2. Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ватан тарихи. Биринчи китоб. Т., «Шарқ», 2010.



## TARIX FANINING ZAMONAVIY KONSEPSIYALARI

Bozorov G’ulom Tilovich

Surxondaryo viloyati Boysun tumanidagi  
62-umum ta’lim maktabi Tarix fani o’qituvchisi

**Annatatsiya.** Tarixiy konsepsiya – bu tarixiy hodisalar va jarayonlarga aniq bir bilish nazariyasi, manbaviy asoslari va o’rganish metodlari nuqtainazaridan qarashlar va yondashuvlar tizimidir.

**Kalit so’zlar:** konsepsiya, jarayon, tarixiy.

Tarixiy konsepsiya – bu tarixiy hodisalar va jarayonlarga aniq bir bilish nazariyasi, manbaviy asoslari va o’rganish metodlari nuqtainazaridan qarashlar va yondashuvlar tizimidir. Tarixiy konsepsiya fanning predmetini, tarixiy taraqqiyot xususiyatlarini bilish va tushunish, ularni belgilab beruvchi omillarni aniqlab beradi.

Tarixiy konsepsiya tarixiy jarayonning asosiy mohiyatini ochib beradi va tushuntirib beradi. Bilish nazariyasi bilish jarayoniga - ya’ni, bilish tamoyillarini aniqlab beruvchi va metodlarning qo’llanishida asos bo’lувчи fanning metodologiyasiga ta’sir ko’rsatadi. Nazariya va metodologiya o’rtasidagi farq tarixchilar tomonidan jamiyat taraqqiyoti, shuningdek, alohida tarixiy voqealar va hodisalarning, tarixiy jarayonlarning o’rganish borasida turlicha farqlanuvchi tushunchalarning shakllanishiga olib keladi.

Tarix fani konsepsiysi bir nechta tushuncha va qarashlarni aks ettiradi:

Birinchidan, tarixiy tadqiqotlarning yetakchi g’oyasi yoki asosiy, bosh mazmuni bo‘lib, ular yordamida tadqiqot ob’ektining tanlanishi asoslab beriladi, tushuntirish tizimini shakllantiruvchi farazlar va tarixiy nazariyalarni yuzaga keltiruvchi tushunchalarni dallillar bilan asoslab berish amalga oshiriladi va tadqiq etilishi mo’ljallanayotgan ilmiy masala ilmiy muammo tarzida shakllantiriladi.

Ikkinchidan, tarixiy hodisalarga nisbatan ilmiy qarashlar tizimi va uning predmetini aniqlovchi, tarixiy taraqqiyotning xarakterini tushunish hamda tarixiy jarayonning aosiy mohiyatini aniqlovchi va ochib beruvchi aniq bir tarixiy bilish nazariyasi nuqtai-nazaridan yondashuvlar jarayonlaridir.

Tarixiy bilimlar aniq bir ijtimoiy muhitda shakllanadi. Tarixiy bilimlar murakkab va ko’pqirrali jarayon bo‘lib, u doimiy rivojlanishda (harakatda) bo‘ladi, bu jarayonda turli nazariyalar va farazlar o’zgarib turadi. Nazariyalar va qarashlarning o’zgarib turishi fanning taraqqiy etib borishi bilan bog‘liq bo‘lib, har bir nazariya alohida jarayonlarning tushuntirib berilishi bilan bog‘liqdir. Konsepsiyalarning o’zgarib turishi esa fan taraqqiyotining asosiy shartlaridan biridir.

U yoki bu tarixiy konsepsiyaga baho berishda va ayni bir tarixchining tarix fanidagi o’rnini aniqlashda birinchi darajali talab shundan iboratki, ayni konsepsiya avvalgilari bilan taqqoslaganda zamонавиy tarixshunoslik nuqtai-nazaridan qanday yangilikni bera olishi mumkinligiga anqlik kiritish zarur bo‘ladi. Qolaversa, har qanday konsepsiyaga baho berishda eng avvalo unga amal qilgan ayni bir tarixchinining tadqiqot jarayonlarining boshlanishidan boshlab to o’z ilmiy xulosalarini bayon qilishigacha amalga oshirgan tadqiqot jarayonlarini chuqr tushunish lozim bo‘ladi.

Zamonaviy tarix fani avvalgi barcha davrlardagi tarix fanlaridan shunisi bilan farq qiladiki, hozirgi kundagi tarix fani yangi axborot muhitida taraqqiy etmoqda, bu axborot muhitidan tarix fani o’zi uchun yangi metodlarni o’zlashtirgan holda ayni vaqtida o’zi ham uning shakllanishiga ta’sir ko’rsatmoqda. Hozirgi kunda u yoki bu mavzuda tarix tadqiqotlarini amalga oshirish emas, balki ilmiy ijodiy jamolar tomonidan yaratilgan, yirik va ishonchli ma’lumotlar bazalari bilan tekshirish imkoniyati mavjud bo‘lgan ishonarli, haqiqiy, tom ma’nodagi ilmiy tarixni yaratish birinchi o’ringa ko’tarilgan.

Jahon miqyosida tarixiy haqiqatga erishish uchun bugungi kungacha mavjud bo‘lgan turli gneseologik paradigmalardan foydalangan holda turli yo’lar bilan borilmoqda. Tarixiy tadqiqotlardagi postmodernizm, ijtimoiy antropologiya, gender yondashuvlariga o’rniga global tarix chiqmoqda, xattoki unga qarshi antiglobalistlar ham shakllanib va o’z e’tirozlarini bayon qilib ham ulgurgan. Zamонавиy tarixda alohida tarixiy jarayonlar tarixiga va ayni vaqtida mikrotarixga bo‘lgan qiziqish kuchayib bormoqda.

Zamonaviy tarix ta’limida fanlararo yondashuv va insonparvarlik tushunchalari asosida tarixiy jarayonlar va hodisalarning ilmiy tahlili professionallik, fuqarolik burchi va vatanparvarlik



tarbiyasiga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyat kasb etmoqda. Tarix fanini o‘qitishda tarixshunoslik va tarix fani metodologiyasi fanlari bilan bir qatorda manbashunoslik fani ham asosiy fanlardan biri sanaladi, shunday ekan har bir yetkazib berilayotgan ma’lumotlarning to‘g‘riliqi va ishonchliligi uchun tarixchining ma’naviy mas’uliyati ham bu borada alohida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutaxassislar tomonidan bildirilgan fikrlarga ko‘ra bugungi kun tarixchi olimlari oldida quyidagi bir qator muhim vazifalar turganligini ko‘rsatib o‘tish mumkin, eng avvalo, tarixiy bilish nazariyasi borasidagi eng so‘nggi zamonaviy tajribalarni umumlashtirish, ikkinchidan, jahonning zamonaviy tarixiy ilmiy tafakkuri taraqqiyotini ko‘rsatib beruvchi axborot-tahliliy materiallarni muntazam ravishda e’lon qilib borish, shuningdek, tarix fani metodologiyasi muammolari, tarixshunoslikning zamonaviy ilmiy-nazariy muammolari, tarixiy bilishning zamonaviy tizimlari, yo‘nalishlari va ilmiy maktablari kabi masalalar yuzasidan maxsus yoki umumiy o‘quv kurslari tashkil qilish, fanlararo yondashuv masalalari va zamonaviy tarix fanining dolzarb muammolarini ta’lim amaliyotiga imkon qadar kengroq joriy etish, qolaversa, tarix fani metodologiyasi ilmiy muammolari borasidagi ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish va kadrlar tayyorlash masalalarini alohida ta’kidlab o‘tish mumkin.

### **Adabiyotlar:**

1. Карпов С.П. Историческая наука и историческое образование в современном информационном пространстве: тупики и перспективы. [www.hist.msu.ru](http://www.hist.msu.ru)
2. Бориснёв С.В. Современные проблемы теории и методологии исторического исследования // [cyberleninka.ru](http://cyberleninka.ru)



## O'RTA OSIYODA TABIIY-IQTISODIY HUDDULARNING VUJUDGA KELISHI VA UNUNG GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Matniyozov Timur Matyoqubovich

Urganch shahar 18-son maktabning  
tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya.** O'rta Osiyo mintaqasida ilk madaniy - xo'jalik tiplarining vujudga kelishi va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.

**Kalit so'zlar:** O'rta Osiyo, pleystasion, Ustyurt, mezolit, Qizqal'a, ashel davri, Uchtut, Soppolli tepe, Bo'stonsoy

O'rta Osyoning issiq mintaqasida ilk madaniy - xo'jalik o'choqlarining vujudga kelishi neolit davriga oidligini isbotlaydigan manbalar olinganligi ma'lum. Ta'kidlash joizki, O'rta Osiyo mintaqasida tabiiy - iqtisodiy hududlarning vujudga kelishi, rivojlanishi geografik xususiyat va tabiiy iqlimga bog'liqligi aholining joylashishida namoyon bo'lgan.

Farg'ona vodiysida tog'da, Toshkent vodiysidagi tog' tizmasida buloq atrofida tekislikka (kulbulloq), qoratog' janubiy qiyaligida (ijond - vaush), Ustyurt qal'asi quduqlari atrofi tekisligi (Esen 2,3, Qoraqduq, Churuk-12), janubiy Qozog'istonda qoratog' tizimida (takali 1,2,3) kichik qoratog' janubi - g'arbiy qiyaligida (Buriqozig'on, Tandirqazig'on makonlari).

Tojikistonda qoratog'lari yuqori qismida qoratog', Turkmaniston hududlarida yangicha, qora tanglar makonlari markaziy Kopetdog' etaklarida joylashgan. Yuqorida qayd qilingan hududlarda O'rta tosh va so'nggi tosh davrlarida ovchilarining mehnat faoliyatlari davom etganligi arxeologik qazishma natijalari ma'lum.

Mezolit davriga kelganda O'rta Osiyo mintaqasida ijtimoiy -iqtisodiy munosabatlarda tub o'zgarishlar yuz beradi, bu esa Buyuk muzliklar davri yakun topishi bilan izohlanadi. Jamiat bag'rida xo'jalikning yangi yo'nalishlari yuz beradi-ki, bu holat insoniyatning ijodkorlik faoliyatlari bilan bog'liqidir.

Taqoza etadiki O'rta Osiyo tabiiy - iqtisodiy hududlarda olib borilgan arxeologik qidiruv ishlari natijasida ibridoib jamoa tuzumining tosh davriga oid manzilgohlar ro'yhatga olinib, ularda qazishma ishlari natijasida boy moddiy ashyolar olinganligi bois, yaqin va O'rta sharqda eng qadimiy etnik hududlar qatoridan o'rin olganligi ma'lum.

Tarixiy adabiyotlarda qayd qilingan tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osyoning Farg'ona, Toshkent vodiylari ilk tosh davrida tabiiy - iqtisodiy manbalar sifatida odamzotning kelib o'rganib, ovchilikni olib borganlar. O'rta Osiyo hududining iqlim sharoiti va geografik joylashishi jihatidan bir - biridan tubdan farqlanadi. Shunday geografik xususiyatni qayd qilish mumkin.

Farg'ona vodiysi to'rt tomonida osmono'par tog'lar bilan o'rab olinganligi munosabati bilan O'rta Osyoning bosh tarixiy - geografik hududlaridan yumshoq iqlim sharoiti bilan ajralib turish xususiyatiga ega bo'lgan.

Shu jihatdan olganda Farg'ona vodiysining Haydarkan va So'x qishloqlari atroflari eng qadimgi davrdan tabiiy - iqtisodiy hududlar bo'lib, odamzotning kelib o'rnashib, etnik makoni hosil qilishi uchun tayyor holatda bo'lgan. Tabiiy iqlim va geografik muhitning qulayligi osmono'par tog'laridagi yopiq holatdagi bor -makonlari atroflari bo'lganligi munosabati bilan odamzot tomonidan o'zlashtirilib, ilk etnik makonlar bo'lgan. Shunday makonlardan biri Selung'ur g'or makoni Farg'onada ashel davrida etnik makon bo'lgan. Darhaqiqat, O'rta Osyoning boshqa tarixiy - geografik mintaqalarida ashel davriga oid ibridoib ovchilarining manzilgohlarida arxeologik izlanishlar olib borilishi munosabati bilan olingan ashyolar tabiiy sharoit va geografik xususiyatlarga ega bo'lgan tabiiy - iqtisodiy hududlarning o'zlashtirilishi amalga oshirilgan.

Tarixiy - madaniy sarhadlarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijalariga ko'ra, Tosh davrining ashel bosqichida Toshkent viloyatining Angren yaqinidagi Qizilolma soydag'i buloq atrofiga odamzot kelib joylashib navbatdagi etnik makonni hosil qilgan. Shuningdek, Zarafshon vodiysining Buxoro va Samarqand hududlarida odamlarning kelib joylashganligi bois, Uchtut va Ijond makonlari ashel davrida etnik makonlarga aylangan. Ibtidoiy ovchilar Tojikistonning Vaxsh vodiysida Qizqal'a, Qirg'izistonning Onarga daryosi sohilida, janubiy Qozog'istonning Qoratog' oldi Bo'riqazig'on, Tandirqazig'on, Turkmanistonning shimoli - g'arbiy Kaspiy bo'yи dengizi sharqiy sohili etagiga ulanib ketgan tekislik tabiiy - iqtisodiy manbaga ega bo'lganligi natijasida,



insonlar tomonidan etnik makonlarga aylantirilgan.

Bronza davrida esa Kopettog‘ oldi etaklarida eneolit davri kabilalarining bir guruxi va shixlari Surxon vohasi shimoli -g‘arbiga ko‘chib kelib Sopollitepaga asos solganlar. Sopollitepaliklarning yangi avlodlari ya’ni shimol tomon Sherobod daryoning Bo‘stonsoy irmog‘i etagiga ulangan balandlikka Jarqo‘tonlik shixlarini qad ko‘targanlar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. АскаровА. Ўзбекхалқинингэтногенезиаэтниктарихи. -Тошкент: “Ўқитувчи”, 2007
2. Аскаров А.А., Абдуллаев Б.Н. Джаркутан (к проблеме протогородской цивилизации на юге Узбекистана). -Ташкент: «ФАН», 1983.
3. AbdullayevO’.IO’rtaOsiyodaibtidoiyjamoatuzumivailkdavLatchiliktarixi.- Toshkent: ”Lesson PRESS”, 2019.
4. Аскаров А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. -Ташкент.,1977.



## TARIX DARSLARIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Ruzibayev Sarvar Rajabovich

Xo'jayeva Dilnoza Erkinovna

Xorazm viloyati Bog'ot tumani

31 – maktab tarix fani o'qituvchilari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Texnika vositalaridan foydalanish usullari, texnika vositalari joylashgan sinf xonasini jihozlash, o'quv teledasturlarini tashkil etish haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lif vositalari, diafilm, oddiy texnika qurilmalari, ovozli apparatlar.

Ta'lifning vositalari o'qitish va o'rganish sifatini ko'tarishga xizmat qiladi. Tarix darslarida ta'lifning texnika vositalaridan foydalanish darsning samaradorligini oshiradi. Ta'lifning texnika vositalari o'qitish va o'rganish sifatini ko'tarishga, o'quvchilarining o'quv materialini qiziqib o'rganishiga va puxta o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Tarix o'qitish tajribasiga ko'ra maktabda ta'lifning quyidagi texnika vositalaridan foydalanilmoqda :

1.Oddiy texnika qurilmalari: Karta va o'quv kartinalari ilinadigan, yog'ochdan yoki boshqa materialdan yasalgan siljiydigan oddiy qurilmalar: ko'chma sinf yozuv taxtasi, sinf devoriga ilinadigan ikki yoqlama ochiladigan yozuv taxta.

2.Ovozli apparatlar: plastinkalar qo'yib ovozchiqaradigan asbob, magnitofon, radiopriyomniklar, bundan tashqari hozirgi paytda kompyuter texnologiyalardan, disklarga tushirilgan tasvirlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Maktab tajribasida plastinkalar va magnit lentalar, zamonaviy disklar yordamida, shuningdek, radiopryomniklar vositasida o'quvchilarни mumtoz va o'zbek, chet el bastakorlarining asarlari bilan tanishtirish, tarix fanlarini orgatish keng quloch yoymoqda. Chunki musiqiy ijodiy asarlarga doir maktab kursining madaniy – tarixiy materialini plastinka va tasma yozuvlarisiz ko'rsatib bo'lmaydi. Masalan, madaniyatga doir mavzularni o'tgan paytda musiqa asarlarini eshittirish darsni maroqli bo'lishiga yordam beradi. Badiiy asarlar yozilgan plastinka va mangit tasmalari ham bor. Darsda G'.G'ulomning "Sen yetim emassan" she'ri yozilgan plastinkadan foydalanish mumkin. Jamoat arboblarining, masalan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning nutqlarini mangit tasmalariga yozib olib eshittirish mumkin yoki televizorlar yordamida dars jarayonida o'quvchilarga qo'yib eshittirish ham mumkin. Bu manbalardan foydalanishda quyidagi usullar qo'llaniladi :

1.Yozuv materiallari yuzasidan o'quvchilarga savollar berish bilan bu yozuvlar dars materiali tarkibiga kiritiladi.

2.Avvalo gramplastinka yoki tasma, disk yozuvi eshitiladi va ko'rsatiladi. So'ngra bu yozuv suhbat yordamida tahlil qilinadi.

3.Yozuvlar asosida o'quvchilarning mustaqil ishlari tashkil qilinadi. Ovozli texnika vositalariga radio eshittirishlari ham kiradi.

O'qituvchi o'quvchilar uchun radio orqali maxsus dastur yoki umumiy dastur bo'yicha tarixdan beriladigan eshittirishlarni eshittirishni tashkil etadi. Hozirgi vaqtida bunday eshittirishlar ko'pincha magnit tasmasiga yozib olingan bo'ladi. Tarix darslarida magnitofon yozuvlaridan keng foydalaniladi. Radio va televideniye orqali beriladigan o'quv va sinfdan tashqari ishlarga bag'ishlangan eshittirishlar tarixiy voqealarning ishtirokchilari, mehnat qahramonlari, yozuvchilar va ijtimoiy arboblar bilan o'tkazilgan uchrashuv materiallari ana shu magnitofon yozuvlarining asosini tashkil etadi. Bu uchrashuv va suhbatlar aynan takrorlanmaydi, yozib olingan magnitofon tasmasidan uzoq yillar davomida va istagan vaqtida darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanish mumkin. Bu o'rinda ham texnika vositasi o'quvchiga qo'l keladi. Har xil ko'rsatuv arboblari va qo'llanmalari ta'lif texnika vositalarining uchinchi guruhini tashkil etadi. Ular epidioskop, diapozitiv, diafilmlar va o'quv kinofilmlaridan iborat. Tarix darslarida bunday texnik sharoiti mavjud bo'lgan kino xonasi yoki texnika vositalaridan foydalanishga moslangan maxsus tarix xonasi bo'lishi kerak. Texnika vositalari bilan ta'minlangan xona asosan quyidagi talablarga javob berishi lozim :

a) xonani tezda qorong'ulatish va tezda yorug'latish mumkin bo'lsin.

b) qorong'u paytda o'quvchilarning yozuv – chizuv ishlarni olib borshi, tasvirlarni daftarga tushirishi, darslik matni bilan ishlashi uchun o'tirgan o'rinnari maxsus lampochkalar bilan yoritiladigan bo'lsin.



- c) xonada juda katta yozuv taxtasi bo’lishi kerakki, uning bir qismi tasvir bilan band bo’lsa, bir qismi tasvirlarni ko’rsatish yoki boshqa maqsadlar uchun bo’shu bo’lsin.
- d) xarita va rasmlar ilinadigan maxsus moslama bo’lsin.
- e) zarur texnika vositalari va ularni ko’rsatadigan apparatlar xonada mavjud bo’lishi bilan birga ular tuzuk, ishga yaroqli holda saqlansin.

Bunday maxsus tarix xonasi bo’lmagan taqdirda sinfni uni texnika vositalaridan foydalananadigan qilib jihozlasa bo’ladi. Bu holda tegishli vosita va jihozlar maxsus javonda saqlanadi. Shisha yoki plyonkadan ishlangan rangli diapozitlar epidiaskop yordamida ko’rsatiladi. Keyingi yillarda, shishaga tushirilgan diapozitlar o’rniga diafilmalar yordamida namoyish qilinadi. Diafilmlardan har bir o’qituvchi hattoki, o’quvchilar ham foydalana oladilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Azizzxo’jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat.-T.: TDPU. 2003.
2. J.G` Yo’ldoshev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari.-T.: O’qituvchi. 2004.



## TARIX DARSLARIDA QIZIQARLI O'YINLI USULLARDAN FOYDALANISH

Sabirova Dilfuza Hasanbayevna,

Xorazm viloyati Bog`ot tumani

21-maktab o`qituvchisi

Jumanazarov G`ulomjon Qadambayevich,

Xorazm viloyati Bog`ot tumani

37-maktab o`qituvchisi

**Annotatsiya.** Keyingi yillarda mamlakatimizda uzlusiz ta`lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlarning asosini jahon ta`limi standartlariga javob bera oladigan ilg`or tajribalarni ommalashtirish hamda ta`lim-tarbiya jarayonida kam jismoniy kuch sarflab, yuqori samaradorlikka erishish yo`lida amaliy faoliyat olib borilmoqda.

**Kalit so`zlar:** tarix, qiziqarli o`yinli, mavzuga zamin, xulosa-daraxt hosilida

Hozirgi vaqtida umumiy o`rta ta`lim maktablari o`qituvchilari oldida turgan eng muhim va dolzarb vazifa o`quvchilarning ilm olishga bo`lgan qiziqishlarini orttirish, ularning tasavvurlarini kengaytirishdan iborat. Ana shu ishni amalga oshirish uchun bugungi kungacha bir qator tadbirlar bajarildiki, natijada umumiy o`rta ta`lim maktablaridagi ta`lim samaradorligining muvaffaqiyatiga zamin yaratildi. Dars samaradorligining muhim shartlaridan biri bu - o`qituvchi va o`quvchilarning haqiqatni birgalikda izlashi va o`quvchilarning butun dars jarayonida faol ishtirot etishidir. Shu bilan birga tarix darslari o`quvchining hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to`g`ri anglashga yordamlashadi. Bizga ma'lumki tarix-juda qadimiy fanlardan biri hisoblanadi. Ta`lim-tarbiya jarayonida mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun bugungi kunning pedagog hodimlari har bir darsda qiziqarli, samarali bo`lgan yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish kerak. Bizga ma'lumki, tarix fanining asosini ma'lumotlar tashkil etadi. Ularni to`liq eslab qolishi o`quvchilar uchun bir oz qiyinchilik tug`dirishi mumkin (ayrim past o`zlashtiruvchi o`quvchilar). “Mavzuga zamin” usuli Maqsad: O`quvchilarni o`tilgan mavzuni mustahkamlashdan oldin, shu mavzu bo`yicha o`quvchilarni darsga tayyorlash ya`ni zamin hozirlash. Dars jarayonida o`tilgan mavzuni mustahkamlash chog`ida, avvalombor, o`quvchilarni darsga tayyorlab olishi kerak. Yaxshi dars o`tilishi, o`quvchilarning yaxshi o`zlashtira olishi eng birinchi navbatda o`qituvchi o`quvchilarni o`ziga jalb qilishi, o`tilgan mavzuni dab-durustdan boshlab, ularga o`tilgan mavzu yuzasidan topshiriqlar berishdan emas, aksincha o`quvchilarni o`tilgan mavzu haqida qisqacha tasavvur hosil qilib olishiga bog`liq. Bu usul ko`proq o`quvchilarni darsga tayyorlab olishi, o`tilgan mavzuni takrorlab, mustahkamlashga zamin hozirlash uchun ishlataladi. Bu usul 5-11 sinflarda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq. Guruhlar belgilanadi. O`quvchilar guruhlarga 5- 7 kishidan bo`linishlari kerak. Guruhlarga bo`lish chog`ida guruhlarning kuchlari teng bo`lishiga ahamiyat berish lozim. Har bir guruhga 2-3 ta yaxshi o`zlashtira oladigan o`quvchilarni va unga yaxshi o`zlashtira olmaydigan o`quvchilarni joylashtirib bo`lish kerak. Har bir guruh o`ziga nom qo`yish kerak. Buning uchun o`qituvchi guruhlarga quyidagicha murojaat qiladi: „Siz guruhga nom qo`yayotganda quyidagilarga e`tibor bering?” Siz guruhingizga o`tilgan mavzuning ichidan biror-bir voqeani keltirib chiqaruvchi so`zlar yoki o`tilgan mavzuning asosiy mazmunlaridan birini tashkil etuvchi so`zlar orqali nom qoying; Guruhingiz bilan bu nomni nima uchun qo`yanligingizni aytib berish uchun tayyorlaning (1-minut vaqt beriladi). Har bir guruh nom qo`yib bo`lgandan so`ng, u guruhlardan bu nomni nima uchun qo`yanligi so`ralishi kerak. Yuqoridaqilarni o`tkazib bo`lgandan so`ng, o`quvchilar o`tilgan mavzu haqida qisqacha tushuncha hosil qilib, o`quvchilar mavzuni mustahkamlash uchun zamin hozirlanadi. Keyin o`tilgan mavzuni mustahkamlash uchun shu guruhlarga savollar, topshiriqlar berish mumkin. “Xulosa-daraxt hosilida” usuli Maqsad: “Xulosa-daraxt hosilida”—Mavzuning asosiy mazmunini keltirib chiqaruvchi savollarga javob berish natijasida tahlil qilinib, yakuniy xulosani keltirib chiqaruvchi o`yinli usuldir. Bu o`yinli usul orqali o`quvchi mavzuning asosiy xulosasasini chiqarishni va bir-biri bilan fikr almashinib, voqealar bayonini yorotib borishni ta`minlaydi.

Qo'llash bosqichlaribo`yicha tavsiyalar:

1. Ko`proq o`tilgan mavzuni mustahkamlash chog`ida ishlatalishi kerak.
2. Bu usul 5-9-sinflarda amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo`ladi.
3. „Xulosa-daraxt hosilida” usulini o`tkazish uvhun birinchi navbatda plakatga yoki sinf



taxasiga (1-rasmida berilgan) daraxt chiziladi va daraxt novdalariga mavzuning asosiy mazmunini tashkil etuvchi sodda savollar hamda o'quvchilarni fikrlashga chorlaydigan muammoli savollar yozib qo'yiladi.

Sodda savollar yozilganligining asosiy sababi sizga ma'lumki faqat agar muammoli savollar yozilsa a'lo baholarga o'qiydigan o'quvchilar javob berishi mumkin, lekin past o'zlashtiruvchi o'quvchilar javob bera olmasligi mumkin. Shuning uchun ham sodda savollar sinfdagi barcha o'quvchilar ishtirokini ta'minlaydi. Bu esa o'quvchilar o'rtaida raqobat kelitirib chiqaradi.

4. Daraxt novdalariga yuqoridagi tartibda savollar yozib qo'yilgandan so'ng, o'quvchilarning javoblari qisqartirilib, daraxtning „Javoblar” qismiga yozib boriladi. Javoblar to'g'ri yoki savoldan ozroq chetlashgan, noto'g'ri bo'lsa ham daraxtning „Javoblar” qismiga yozib boriladi. Savol tug'ilishi mumkin nima uchun noto'g'ri yoki mavzudan ozroq chetlashgan javoblar ham yozib boriladi. Buning asosiy sababi tahlil jarayonida o'quvchining hatosini o'quvchilar to'g'irlashadi va bu jarayon esa baxs-munozarani keltirib chiqaradi.

5. Daraxtning „Javoblar” qismidagi javoblar o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinib eng to'g'ri va eng maqbul xulosa javobi daraxtning „Javoblar” qismidan chiqqan „Javoblar xulosasi” qismiga yoziladi. Shu tartibda hamma savollarga javob berib bo'lgunga qadar davom etadi.

6. „Javoblar xulosasi” qismidagi javoblarning xulosasi o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinib, eng so'nggi mavzuning asosiy xulosasi daraxtning „Yakuniy mavzuning asosiy xulosasi” qismiga yoziladi. Ko'rinish turibdiki mavzuning asosiy xulosasi javoblarning bosqichma-bosqich tahlili jarayonida kelib chiqayapti.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. «O'zbekiston tarixi» dasturi. Toshkent. 1980-1990.
2. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
3. Nurg'oziyev Sh.X. - Do'stlik TXTMFMT va TEB ga qarashli 10-umumiyl o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi



**MAHMUD AZ-ZAMAHSHARIYNING HAYOTI VA ASARLARI TARIX VA TARBIYA  
FANLARIDA O'QUVCHILARNING KOMIL INSON DARAJASIDA KO'TARISHDAGI  
O'RNI BEQIYOSLIGI HAQIDA METODIK TAVSIYA**

**Abdullayeva Muhayyo Muhibullaxonovna**

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani  
8-sonli maktabning tarix fani o'qituvchisi

**Anotatsiya:** Ushbu metodik tavsiya Zamahshariyning hayoti va ijodiy bugungi kundagi yoshlarga bilim berishda uning ahamiyati haqida tavsiyalar berilib, tarixiy manbalar asosida yozilgan.Tarix va tarbiya fani o'qituvchilari o'z amaliyotlarida unumli foydalanishlari uchun kerakli ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Izmiqshir, “Al-Mufassal”, Abumuzar ibn Jarir Zabbiyo Isfaxoniy, Nosir Hosiri, Abu Said Zakoniy, Abulkattob ibn Abulbatir, Jorulloh, Xorazmning iftoxori...

Mahmud az-Zamahshariy hayotini asarlarini ekanmiz chiqurroq o'rgansak juda katta ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'la oladigan jihatlarini ko'ramiz. Zamahshariyning bugungi kun yoshlariiga o'rnak bo'la oladigan eng e'tiborli ilmlari arab tilini arablardan ham chiqurroq o'rganib ularga uztos darajasiga ko'tarilishidir. Bugungi kunda yuksalishni xoxlagan inson borki, qo'shimcha xorijiy tillarni o'rganish uchun harakat qilayotganini guvohi bo'lamic. Boshqa tillarni o'rganishda bizga buyuk allomalarimizdan al-Farobi 70 ga yaqin tillarni bilgani haqida ma'lumotlar o'qisak, az-Zamahshariyning arab tili va grammatikasini o'rganishda “arab va arab bolmaganlarning ham ustozi” degan sharaflı nomga ega bo'lism o'sha davr uchun ancha mashaqqatli bo'lganini ko'ramiz. Chunki bu davrda bugungi kunimizning eng katta ne'matlaridan bo'lgan xoxlagan mavzuda kitob toppish allomalar yetishib chiqqan davrda dolzarb holatlardan bo'lgan. Kutubxonalar shoh saroyi va maxsus madrasalardagina bo'lib, ularni mutolaa qilishga esa barchaga to'g'ridan to'g'ri ruhsat berilmagan. Buyuk allomamiz Ibn Sino tarixini o'rganganimizda unga saroy kutubxonasidan foydalanish uchun Mahmud G'aznaviying kasaliga shifo topgandan keyingina ruhsat berilgan. Zamahshariy yoshlida yiqilib, bir umrga nogiron holatida, arab tilini o'rganishga va tavsiyalar yozishga qanday erishdi. Zamahshariy tillarni o'rganishda asarlarining birida shunday tavsiya bergen “Agar boshqa bir tilni oson va tez o'rganmoqchi bo'lsang, o'sha tilde so'zlashguvchi xalqning urf odati va an'analarini o'rgan” deb yozib qoldirgan.

Zamahshariy jismoniy sog'lom bo'lмаган xolatda Arabistoniga hayoti davomida ikki marotaba bordi, o'n yil yashagan chog'ida Qur'oni Karimga eng mukammal tafsirlardan birini yoza oldi. Bugungi kundagi o'sib kelayotgan har bir yosh avlodga Zamahshariyning mukammal tafsirlardan ekanligini va hozirgi kunda ham Misrdagi islom universitetlaridan bundan to'liq foydalanyotganligini o'rgatish o'quvchi yoshlarni yanada izlanishlarga harakat qildirsa maqsadga yetgan bo'lar edik.

Zamahshariy uning toliq ismi Abul Qosim ibn Umar az-Zamahshariy 19 mart 1075 yili Xorazmning Izmiqshir qishlog'ida tug'ilgan, bolaligida varrak uchurayotganda tomdan yiqilib oyog'ini sindirib va bir umrga nogiron bo'lib qoladi. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda Zamahshariyning otasi Umar ibn Ahmad masjidda imomlik qilgan, onasi taqvodor dindor ayollardan bo'lgan. Uning keljakda nafaqat Xorazm diyori, balki butun sharq olamida yuksak ustozlik darajasiga ko'tarilganligiga oilasining o'rni katta bo'ldi.

Uning arab gramatikasiga bagishlangan “AL Mufassal” kitobi o'zining darajasiga ko'ra arab olimi Sibavvaxning kitobidan keyin turadi. Hayotligidayoq unga “Butun olimlarning ustodi”, “Butun arab bo'lмаган va ajam (arab bo'lмаганлар) ustodi”, “Jorulloh- Allohnning qo'shnisi”, “Xorazmning sharafi” kabi nomlar bilan ulug'lashgan. Boshlang'ich ta'limni qishlog'ida olgan Zamahshariy keyinchalik Gurganch, Buxoro madrasalarida tahsilini davom ettirdi. Madrasalarda o'qishni tugatgach, mustaqil ilm bilan kitoblardan nusxa ko'chirish, yangi kitoblar yozish kabi ilmlar bilan shug'ullanma boshladi. Maximud faoliyati davomida Abumuzar ibn Jarir Zabbiyo Isfaxoniy, Nosir Hosiri, Abu Said Zakoniy, Abulkattob ibn Abulbatir singari o'z zamonasining mashhur olimlari bilan muloqotda bo'ldi va tehsil oldi.

Mahmud ilmga chanqoqligidan nogironligiga qaramay ilm izlab Isfaxon, Xuroson, Bog'dod, Hijozda, ikki marta Makkada safarda bo'lgan. Bir necha yil Iroq va Arabiston yarim orolida 10 yil davomda yashab, lirik tilshunos olim sifatida “Asos ul – balog'a” (“Chechanlik poydevori”),



“Alfoiq fi g’aribil-hadis” (“Xadisdagi notanish so’zlarni o’zlashtiruvchi”) kabi asarlar yaratib arab tilshunoslik fanining rivojiga munosib xissa qo’sha oldi.Zamahshariyning arabcha devoni bo’lib, lirik, falsafiy, she’rlar, qasidalar, faxriya, marsiya va nazmiy maktublardan iborat.

Zamahshariy haqida zamondoshi Abdusamad Muhammad Saony(1179-1229), arab tarixchisi Yoqt Xamavyi(1179-1229), misrlik Jaloladdin Kiftiy (1167-1248)lar uning tengi yoq olim o’z zamon adiblarining imomi bo’lganligini o’zasarlarida ta’kidlab o’tganlar.Zamaxshariy Xorazmshox Otsizga bag’ishlab qasidalar yozgan.Zamahshariy umri davomida arab tili, adabiyot, tarix fanlariga oid asarlar yozgan.Zamahshariyning “Devon ur-rasoil” (“Risolalar to’plami”), “Devonu xutab” (“Xutbalar to’plami”), “Devon ut-tamsil” (“Matal v maqollar to’plami”), “Devoni tasliyat iz-Zarip”, “Devoni savoir il-amsol”, “Devoni risolat il-masala” va boshqa asarlar nomlarinigina bilamiz.Uning bizgacha etib kelgan eng noyob qo’lyozmalaridan biri “Devon az-Zamahshariy” bo’lib, bu qo’lyozma nusxasi Misr kutubxonasida saqlanadi.Zamahshariyning Qur’oni Karim tavsiriga oid “Al-Kashshof “asari musulmon olamida ayniqsa mashhur.Qohiradagi dunyoga mashhur “Al-Azhar” diniy universitetida talabalar Qur’onni “Al-Kashshof” asari orqali o’rganadilar.Bu asarni “Agar bu asar bo’lmaganida Qur’onni juda ko’p sirlari ochilmagan bo’lardi” deb ta’riflashadi.

Abdurahmon Jomiy ham uning arab tilidagi izohlariga tasannolar aytib o’z asarlarida yozib qoldirgan.

Zamahshariy oila tashvishlari ijodga halaqit beradi deb, dunyodan toq o’tgan.Ammo ko’plab shogirdlari va asarlarini o’z farzandlaridek bo’lgan. Zamahshariy 1144-yilda Xorazmda 69 yoshida vafot etgan.1333-yilda Xorazmni ziyorat qilgan arab sayyohi Ibn Batuta (1304-1377) Zamahshariyning maqbarasini Urganch yaqinida ko’rganini va uning ustiga qubba o’rnatilganini yozib qoldirgan.

Zamahshariyning ijodini o’rganishda va o’zbek tiliga tarjima qilishda professor A.Rustamov va sharqshunos U.Uvatovlar xizmatlari kattadir.

Xulosa qilib ayatdigan bo’lsak Mahmud az-Zamahshariyning asarlari 10 asrdan beri o’z ahamiyatini yo’qoymaganiga sabab albatta uning tinimsiz mutolaa va ilmdagi izlanishlarinig behisob samarasi demakdir...

### Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. Internet saytlari
2. ziyonet.uz.
3. kitob.uz



**O’ZBEKISTON TARIXINI O’RGANISHNING ILMIY-NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.**

**Xamrayeva Muhayyo Shavkatovna**

Xorazm viloyati shovot tumani

32-maktab tarix fani o’qituvchisi.

Email: muhayyo32maktab@umail.uz

**Karimova Shaxnoza**

Xorazm viloyati shovot tumani

49-son ixtisoslashtirilgan maktab tarix fani o’qituvchisi.

Email: shaxnoza49maktab@umail.uz

**Annotatsiya:** ushbu maqolada O’zbekiston tarixini o’rganishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari qanday ahamiyatlarga ega ekanligi haqida mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so’zlari:** madaniyat, metodologiya

O’zbekiston tarixini o’rgani ilmiy - nazariy va metodologik asoslari. Mustaqillik sharofati bilan O’zbekiston tarixi fanini o’rganish davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Shu urinda Islom Karimovning «Tarixiy xotirasiz barkamol kishi bo’lmaganidek, o’z tarixini bilmagan xalqning kelajag’i ham bo’lmaydi», «Tarix xalq ma’naviyatining asosidir», «Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q», «O’zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi», «Inson uchun tarixdan judo bo’lish - hayotdan judo bo’lish demakdir» kabi so’zlari ham nazariy, ham metodologik ahamiyatga egadir (Karimov I.A. O’zbekistonning o’z istiqlol va taraqqiyot yo’li. - T.:O’zbekiston, 1992. -B.71; Tarixiy xotirasiz kelajak yuq. -T.: Sharq,1998. -B. 10-21). Islom Karimov o’tmishni o’rganishda tarixiy tahlilni ilmiy jihatdan xolisona va xalol amalga oshirish asosiy vazifadir, deb uqtirgan. Bu vazifani amalga oshirish O’zbekiston tarixi fanini o’rganishning ilmiy va uslubiy asoslariga tayanishni talab etadi. Bunday yondashish zaminida dialektik metodni qo’llash yotadi. Dialektika (yunoncha - dialektike - rivojlanish to’g’risidagi falsafiy ta’limot) olam yagona va yaxlit, unda sodir bo’ladigan xodisalar, voqealar umumiyligi va o’zaro bog’lanishi, o’zlo’qsiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyotda bo’ladi, deb ta’lim beradi. Bu degani olamda sodir bo’lgan xodisalar, voqealar ma’lum bir bog’lanishda, o’zlo’qsiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyot jarayonida sodir bo’lishini inobatga olmoq lozim. Demak, O’zbekiston tarixini o’rganar ekanmiz, uning jahon tarixining bir bo’lagi ekanligini yodda tutmok darkor. Negaki, har bir xalq tarixi milliylik, o’ziga xos betakror xususiyatlari bilan jahon tarixi, butun insoniyat taraqqiyoti bilan umumiyligi bog’lanishdadir. Tarixiy voqe, hodisalarni o’rganish, tahlil etish va yoritishda xolislik - haqqoniy, adolatli yondashuv muhim metodologik qoidadir. Prezidentimiz Islom Karimov ta’biri bilan aytganda, «Tarixiy xotira tuyg’usi to’laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o’tgan yo’l o’zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo’qotish va qurbanlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o’rganilgan taqdirdagina chinakam tarix bo’ladi» {Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma’naviyat, 2008. B. 97). Xolislik qoidasi tarixiy voqe, xodisalarni o’rganayotganda ular bilan bog’liq bo’lgan barcha faktlarning xech bir istisnosiz butun majmui bilan birga olib tekshirishni, aniq, haqqoniy dalillarga asoslanishini talab qiladi. Tarixiy xodisalarni bir butun xolda, o’zaro aloqada va munosabatda, deb o’rganish darkor. O’zbekiston tarixini o’rganishda tarixiylik metodologiyasi muhim ahamiyatga ega. Tarixiylik tamoyili o’sha davr shart - sharoitlarini, tarixiy muhitni inobatga olmoqni takrzo qiladi. Voqe - xodisalarni o’rganishda tarixiy bog’lanish, tarixiy rivojlanish jarayoniga e’tibor qilmoq zarur. Har bir hodisa qanday tarixiy sharoitda, muhitda bo’lganligini bu xodisa o’z taraqqiyotida qanday asosiy bosqichlarni bosib o’tganligini, keyinchalik u qanday bo’lib kolganligini bilish tarixiylik qoidasining asosiy talabidir. Masalan, bironta davlat faoliyatiga tarixiylik nuqtai nazaridan turib baho bermokchi bo’lsak, “birinchidan, u qachon, qanday tarixiy sharoitda paydo bo’ldi, ikkinchidan, u o’z taraqqiyotida qanday bosqinchilarni bosib o’tdi?, uchinchidan, u xali ham mavjudmi?, Hozir kay ahvolda, qanday bo’lib koldi?” degan savollarga aniq javob berish zarur bo’ladi. Tarixiylik metodologiyasi xalqning o’tmishini, hozirgi zamon va kelajag’ini yagona tabiiy jarayon deb, o’tmish hozirgi zamonni tayyorlaydi, hozirgi zamon kelajakni yaratadi, degan taraqqiyot qonuni asosida qaraydi. Insoniyat ana shunday umumiyligi yo’ldan borayotgan ekan, porlok; hayot, turmush kurmokchi bo’lgan avlod tarix fani orqali o’z O’tmishini yaxshi bilmogi lozim. O’tmishni, ajdodlarimiz tarixini qanchalik yaxshi bilsak, anglab yetsak,



hozirgi zamonni, mustaqilligimiz mazmunini shunchalik mukammal tushunamiz, kelajakni to'g'ri tasavvur etamiz. Shuningdek, hozirgi zamonni, bugungi avlodning bunyodkorlik faoliyatini to'g'ri idrok etish o'tmishni, tariximizni chuqur anglashga ko'maklashadi. Tarixni o'rganish faktlarni takkrslash, mantiliy qiyosiy xulosalar chiqarish va umuman falsafiy tafakkur bilan yondashishni talab qiladi va O'tmishimizni teran anglashda asosiy mezon bo'lib krladi. Tarix fanining rivoji, uning metodologiyasi rivojiga bog'liq; bo'lganidek, tarix fani metodologiyasi yuksak darajada takomil topishi tarix fani kay darajada ekanligiga ham bog'liq, Bu xoldagi o'zviy ikki tomonlama bog'liqdik umumiy qonuniyatidir. Mana shu o'zaro aloqadorlik qonuniyati, qadim mumtoz tarixshunosligimiz va hozirgi zamon tamadduniga, sivilizatsiyasiga asoslanadi, O'zbekistan tarixi fani metodologiyasi ikki qismdan iborat:

1) O'zbekiston tarixi fanining metodologik ilmiy - nazariy, g'oyaviy - mafkuraviy va falsafiy asoslari. Unga quyidagilar kiradi:

2) O'zbekiston tarixi fanining metodologik asoslari va tamoyillari quyidagilardan iborat:

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Usmonov K, Sodiqov M., Oblomurodov N. O'zbekiston tarixi. I - qism. - T.: 2002. - B. 6-21.

2. O'zbekiston tarixi / R. Murtazaeva umumiy tahriri ostida, - T.: Yangi asr avlodi, 2003. -B. 7-20.



## O'QUVCHILARDA TARIXNI BILISH ORQALI O'ZLIKNI ANGLATISH

**Yakubbayeva Ziloyxa Komilovna**

Urganch tumani 27-sон мактаб о'қитувчisi

Telefon: +998 (97) 763 17 18

ziloyxakomilovna\_1718@inbox.uz

**Batirova Mamlakat Raximovna**

Shovot tumani 38-сон мактаб о'қитувчisi

Telefon: + 998 (90) 649 37 44

batirovamamlakat\_38@inbox.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqola o'quvchilarda tarixni bilish orqali o'zlikni anglatish haqida.

**Kalit so'zlar:** Markaziy Osiyo, Zarafshon, Farg'ona vodiysi, Murg'ob daryosi, qadimgi davr madaniyati.

Mavoraunnahr Markaziy Osiyo xalqlari uzoq tarixga egadir. Eramizdan avvalgi I ming yilliklarda bu o'lkada, yunon manbalarida ko'pincha Skif(sak)lar deb nomlangan xalqlar istiqomat qilgan. Lekin, aholi o'zi yashagan joyining nomiga qarab turlicha atalgani ham adabiyotlarda keltirilgan. Masalan, Amudaryo quyisida yashaganlar xorazmliklardir; Zarafshon vodiysida yashaganlar sug'dlar; Murg'ob daryosi vodiysida yashaganlar marg'iyonlar; Farg'ona vodiysida yashaganlar –parkanlar kabi nomlar bilan ma'lum bo'lgan.

Markaziy Osiyoning shu vodiylarida boshlang'ich madaniyat markazlari vujudga kelgan. Eramizdan avvalgi V-VI asrlarga kelib bu o'lkalar Eron davlati tamonidan bosib olingan va shu davrda eng yirik dinlardan - Zardushtiylik shakllangan. Taxminan shu davrlardan boshlab, Markaziy Osiyoda shaharlar va shahar madaniyati ham tashkil topib bordi.

Eramizdan avvalgi IV asrga kelib Markaziy Osiyoning Aleksandr Makedonskiy tamonidan bosib olinishi natijasida, bu yerda yunon va yerli xalqlarning qorishgan davlatlari vujudga keldi. Yerli xalqlar madaniyatiga, yunon madaniyati, afsonalari ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi va aksincha, xalqimiz hayoti, afsonalari haqida ma'lumotlar, qadimgi yunon mualliflarining asarlariga kirib bordi.

Masalan, Kliment Aleksanderskiy, Ksenofont, Strabon, Ptolomey, Geredot asarlarida qadimgi xalqlarimizdagi turli madaniy – ma'naviy qadriyatlар, xalq qahramoni To'maris, Spitamen, Shiroq haqida ma'lumotlar va afsonalar keltiriladi. Bu davrda Markaziy Osiyoda keng tarqala boshlagan Zardushtiylik sof din bo'lib qolmasdan o'z davri ma'naviyatining eng muhum yo'nalishlarini

tashkil qildi, o'sha davr xalqining madaniyati, ma'naviyati urf-odati axloqi kabi masalalarni o'z ichida aks ettiradi va ularga ham ta'sir ko'rsatadi. Zardushtiylikning asosiy qoidalari ayrim mualliflarining ta'kidlashicha Xorazmda yaratilgan “Avesto” da o'z ifodasini topgan.

Qadim kitoblarda ayon tarixing,

Yovlar ham tan bergen so'zga mushtarak.

Muqaddas "Avesto" ichra ta'rifing,

Axuramazdaning mehridan darak.!

Azizim Xorazm-go'zal Xorazm!

Zardushtiylik dastlab mehnatkash xalqning axloqiy qoidalari o'zida ifodalagan bo'lsa, keyinroq ruhoniylar qo'lida siyosat yurgizishning asosiy quroliga aylanib qoldi. Bu davrga kelib Xorazmdagi yerli xalqning davlatchiligi shakllana boshladи. V-VI asrlarga kelib hukumron ruhoniylarga, zardushtiylikka qarshi qaratilgan, Mazdak boshlab bergen, mazdakizm ta'limoti shakllandi. Bu ta'limot dehqonlarni ularning huquqlarini himoya etib, tenglik, adolat o'rnatishga xizmat qildi.

Qadimgi davr madaniyati, ma'naviyati, jumladan, axloq, ma'rifat, ta'lim tarbiya haqidagi fikrlar xalq og'zaki adabiyotida folkorda turli xalq an'analarida ham o'z aksini topib kelgan.

Go'ro'g'li, Alpomish, Rustam haqidagi dostonlarda xalqimizning qadimgi urf-odatlari, ruhiyati, xulq - odoblarining ifodasini uchratishimiz mumkin. Bunday ma'lumotlar qadimgi sug'd, xorazm, turkiy yozuvlar namunalarida saqlanib qolgan manbalarda ham uchraydi.

VIII asrga kelib Markaziy Osiyoni arablar istilo qildilar va ular o'zları bilan yangi din, Islomni, olib keldilar va bosib olingan xalqlar orasida turli yo'llar bilan shu dinni tarqata boshladilar. Albatta, Markaziy Osiyoni arablar tomonidan bosib olinishi osonlik bilan bo'lmadi. Ko'plab qarshiliklar



bo‘lib o‘tdi. Lekin, VIII asr oxiriga kelib Markaziy Osiyoda arab xalifaligining hukumronligi va islom dini uzil-kesil o‘rnatildi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, tarixiy ongini yuksaltirish, tarixiy bilim va tafakkurini shakllantirish, tarixiy joylarga ko‘proq sayohatlar tashkil qilish, bizning ota–bobolarimiz, o‘tmishimiz qanday bo‘lganligini, ota-bobolarimiz mustaqillik uchun qanday kurashlar olib borganliklarini, mustaqilligimizning qadriga yetishi, uni asrab avaylashga, ularni vatanga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalash, tarixiy madaniy, ma’naviy merosimizni asrab avaylashga o‘rgatishimiz, maktablarda turli tarixiy tadbirlar o‘tkazish bularning tarixiy ongini rivojlantirishning muhim omillari hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.:O‘zbekiston. 2017,2018,2019.
- 2.Xayrullayev M.M. Ma’naviyat yulduzları.T.:Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1999.
3. Ma’rifat yog‘dusi.Ilmiy-uslubiy, adabiy-badiiy jurnal.2009.3-sон



AMIR TEMUR HARAMINING DURDONALAR...

**Mavlonova Dildora Xabibullayevna**

Namangan viloyati Chortoq tumani  
28-umumta'lim maktabining tarix va  
tarbiya fani o'qituvchisi  
Telefon:+998972120811

**Anotatsiya:** Ushbu maqola, tarixiy va adabiy manbalar asosida Amir Temur hayotidagi muhim ayollar o'rni va ahamiyati haqida, Bibixonimning aql-zakokati haqidagi rivoyatlar bilan boyitilgan. Ijtimoiy fan o'qituvchilar qo'shimcha manba sifatida foydalanishlari uchun qulay manbalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** , Amir Temur, Umarshayx Mirzo, Umarxon, Edgar Allan Po, Turg'un Fayziyev, Turmush og'o, Jahongir Mirzo, O'ljaoy Turkon Kano, Ryui Gonzales de Klavixo

Amir Temur buyuk davlat arbobi, vatanparvar, adolatli qo'mondon, madaniy meroslar qoldirishda unga teng keladigan tarixiy shaxslar sanoqligina. Donolarning shunday so'zлari bor "buyuk insonlarning dunyoga tanilishida, yetuk alloma bo'lishida unga hamnafas, qo'llab-quvvatlovchi, ko'makdosh bir ayol bo'ladi". Darhaqiqat, buyuk allomalardan Zamahshariy, Buxoriy, Ibn Sino kabilarni buyuklik darajasida asosiy onalari ko'makdosh bo'lgan bo'lsalar, Amir Temur, Umarshayx Mirzo, Umarxon kabi davlat arboblari hayotida ularga yelkadosh, maslahatdosh onalari bilan birga ayollari ham ularning hayotlarida katta ahamiyat kasb etganlar. Amir Temurning dunyoning tortdan uch qismini egallashiga unga juda katta maslahatlari bilan yordam bergan uning eng sevimli ayoli, saroyning katta xonimi Bibixonim – Saroymulkxonim bo'ldi.

Bahodir To'rg'ayning o'g'li Temir qanday bola bo'lganligi, uning yoshligi va birinchi muhabbat haqida tarixiy dalil va manbalar yo'q, deyiladi. Katta-kichik barcha yurdosh olimlarimiz, rus va g'arb sharqshunoslari shunday fikrda. Ammo Amerika shoiri Edgar Allan Po «Temur» nomli dostonida uning birinchi muhabbat haqida yozgan. Asarda hazrat Sohibqiron Amir Temur o'lim to'shadiga yotarkan, bir umrlik piriga o'zining birinchi muhabbat va bu muhabbat shu video chog'igacha o'zini tark etmagani borasida gapiradi.

Sevdim bu dunyoning bir dilbarini.

Qachon ilk bor ko'rdim, qaysi ko'z bilan?

Men uning chiroyli qarashlarini

Tasvirlay olmayman aslo so'z bilan.

Xayolimda qolgan faqat bir suvrat

Yuragimning titroq varaqlarida.

U suvrat suvratmas, soyadir faqat,

Sirli shabadaning soyasi sodda.

Temur u qiz o'zi uchun quvonch, umid, ko'z nuri bo'lganligi, boladay sof, mas'um, muloyim, ayni chog'da aqli, shuuri komilligi, o'rtalaridagi muhabbat tamasizligi, hech nima talab qilmaganligini hikoya qiladi. Hikoyada eng baxtli onlar, yuksak toqqa chiqqanlari, qoyalarda turib daradagi yangroq irmoqqa qulqoq tutganlari, sirli soyalarning cho'kishi, nozik ko'kragiga bosh qo'ygani, yig'lab muhabbat izhor qilganlari kabi manzaralar jonlanadi. Amir Temur o'sha paytda faqat muhabbat emas, shon-shuhurat ham o'ziga qanot bo'lganligi va u kelgusida boshiga toj kiyajagi va qizni malika qilajagi haqida gapirganda, qiz javob berishdan o'zini chap olgani borasida ham hikoya qiladi va... buyuk shon-shuhratlarni qo'liga kiritib qizning uyiga qaytganida uni topmaganligini alam bilan so'zlab beradi.

Edgar Po «shon-shuhurat – muhabbatning sochlari yulgani» haqidagi fikri bilan dostonni yakunlaydi.

Albatta, bu voqealar shoirning xayol mahsuli bo'lishi mumkin, ammo shoirning xayolini, ilhomini qo'zg'agan bir tafsilot, bir xabar bo'lishi kerak-ku

Muhtaram olimimiz Turg'un Fayziyevning «Temuriylar shajarasi» kitobida Hazrat Sohibqiron Amir Temurning otasi Amir Muhammad Tarag'ay Shahrisabz (Kesh)ning ma'lum qismida hokim bo'lgan va zamon an'analariga ko'ra o'g'liga ot minish, ov qilish, xat-savod chiqarish, islam qonun-qoidalarini o'rgatish uchun murabbiylar tayinlagan. Buyuk arab faylasufi Ibn Xoldun sohibqiron turk, arab, fors xalqlari tarixini chuqur o'rgangan, diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarning eng



murakkab jihatlarigacha yaxshi o‘zlashtira olgan zot ekanligini yozib qoldirgan.

Temur 12 yoshidayoq bolalarga xos ermak o‘yinlar o‘ynamas, sipohiylarga xos o‘ynlar o‘ynardi. 16-18 yoshida qilichbozlik, nayzabozlik va ov qilish san‘atini mohirona egallaydi. Darvoqe, rus va o‘arbiy Ovrupo shahzodalari ham aynan shunday tarbiyalanganlar.

19 yoshida, ya’ni Edgar Allan Po aytmochchi, birinchi muhabbat tarixini boshdan kechirgan va shon-shuhratga erishish uchun kurashga kirishgan vaqlarida, otasi uni Joku Barlosning qizi Turmush og‘oga uylantirib qo‘yan, yana shu yilning o‘zida Amir Qozog‘onning nabirasi, amir Husaynning singlisi Kamoloyga uylangan. Kamoloy doim erkaklar kiyimida otga minib, janglarda ishtirot etar, jangdan ko‘p o‘ljalar bilan qaytar ekan. Shuning uchun uni O‘ljaoy Turkon og‘o deb atarkanlar. 1356 yilda Turmush og‘odan Jahongir Mirzo, O‘ljaoy Turkon og‘odan Umarshayx Mirzo tug‘ilgan. Yana ikki yildan keyin Turmush og‘odan bir qiz tug‘ilib otini O‘gibegin qo‘yanlar, o‘ljaoy Turkon og‘odan ham bir qiz tug‘ilib, otini Sulton Baxtbegim qo‘yanlar. 1366 yilda O‘ljaoy Turkon og‘o kasal bo‘lib vafot etgan. Turmush og‘oning keyingi hayoti haqida boshqa ma’lumotlar uchramaydi.

1360 yilda Temurning otasi amir Muhammad Tarag‘ay vafot etdi va Temur otasining o‘rnida uning ishini davom ettirdi.

Kunlarning hammasida, ba’zan-ba’zangina xastalik tufayli bo‘lak yashaganini hisoga olmaganda, xotini O‘ljaoy Temur bilan yonma-yon bo‘ldi. Ammo notinch va og‘ir kunlarning ta’siridanmi, O‘ljaoyning kasali oydan oyga, yildan yilga kuchayib bordi va 1366 yil mart oyida vafot etdi. Ular bir qiz va bir o‘g‘il ko‘rgandilar, ammo ular ham yoshlikda nobud bo‘ldilar.

Ibn Arabshoh Temurni shunday tasvirlaydi:

«Temur juda kelishgan edi, bo‘yi baland, kallasi katta, manglayi ochiq, ovozi jarangdor edi, kuchi jasurligidan qolishmas, oq yuzini och qizil rang jonlantirib turardi. Keng yelkalar, semiz-semiz barmoqlar, yonboshlar, baquvvat mushaklarga ega edi. O‘ng qo‘li va oyog‘i qattiq shakastlangandi. Ko‘z qarashlari yoqimli, o‘zi o‘limni pisand qilmasdi. O‘la-o‘lguncha aql-zakovatini ham, dovyurakligini ham yo‘qotmadni. Yolg‘on-yashiqning ashaddiy dushmani edi, hazil-huzulni yoqtirmasdi. U o‘z huzurida talon-taroj, o‘ldir-o‘ldir, xotinlarni zo‘rlashlar haqida gapirishga yo‘l qo‘ymasdi. U qanchalik ayovsiz bo‘lmasisin haq gapni oxirigacha eshitishni yaxshi ko‘rardi. Yaxshi-yomon holatlar uning kayfiyatini buza olmasdi».

Temur chavgon o‘yinini yaxshi o‘ynardi.

Saroymulxonim Chig‘atoy ulusiga mansub bo‘lgan mo‘g‘ul xonlaridan Qozonxonning qizi bo‘lib, 1341 yilda tug‘ilgandi, otasi Qozonxon taxtdan ag‘darilib qatl etilganda u hali 5 yoshda edi. 14 yoshida Amir Husayn uni o‘z nikohiga olgandi. Amir Temur uni 29 yoshida o‘z nikohiga kiritib, «ko‘ragon» («kuyov») bo‘ldi. Kuyovlik, rasm-rusmlarga ko‘ra, rasman xon bo‘lmasa ham, hokimiyatni boshqarish huquqini berardi. Temur Saroy Mulkxonimning xon avlodiga mansubligini inobatga olib, uni Bibixonim (Katta xonim) etib tayinladi. Ya’ni endi u haramdagagi barcha malikalardan ulug‘ hisoblanadigan bo‘ldi. Bunda uning aql-zakovat va fikrlash doirasi kengligi bosh omil bo‘ldi. Chindan ham Saroymulxonim juda aqlli, farosatli, tadbirkor ayol edi. Siyosatdonlik, insonparvarlik, saxovat bobida ham tengsiz bo‘lib, hokimiyatni boshqarishda bemalol ishtirot eta olishi, mamlakatning ijtimoiy va madaniy ishlariga homiylik qila olishi ko‘rinib-bilinib turardi.

Tarixchilarning yozmalaridan ma’lumki, Amir Temur Eronga yurish boshlaganda, Isfaxon qamali cho‘zilib ketib, Saroymulxonimga maktub jo‘natadi, «Qo‘shinning zaxirasi tugadi, xazinadan zar yuboring» deyilgandi unda. Bibixonim «siyosatingiz ham tugadimi?» deb javob yozgan, so‘ng Amir Temur turli suyaklarni kestirib, orqasiga muhr urdirib, vaqtincha pul chiqartirgan, shahar qishloqlardan suyak-pullarga oziq-ovqat sotib olgan, Isfahan taslim bo‘lgan, suyak pullarni zar pulga almashtirib berilgandi.

Bibixonim chet el elchilarini qabul qilish marosimlarida hukmdor yonida ishtirot etgani ham tarix kitoblarida bitilgandir. Bibixonim Klavixoning xotiralarida shunday tasvirlangan:

«Hamma joy-joyini egallagandan keyin chodirlar yaqiniga o‘rnatilgan g‘ovlarning biri ichidan bayramda qatnashish uchun senorning (Temurning) ulug‘ xotini Kano (Bibixonim) chiqib keldi. U oltin gulli qip-qizil libosda bo‘lib, libos yengsiz, yoqasi chuqur o‘yilmagan, faqat boshi chiqib turishiga loyiq va qo‘llarini tiqish uchun mo‘ljallangan o‘ymasi bor, etak tomonlari juda keng edi. Beliga ham hech qanday kesik qilinmagan, erkin yursin uchun, etakni 15 tacha ayol ko‘tarib kelardi. Yuziga upa uni quyoshdan saqlash uchun surilgan ekan. Qishda ham, yozda ham uzoq yo‘lga chiqqan hamma oqsuyak xonimlar yuzlarini kundan shunday himoya qilisharkan. Kanoning



yuzi yengil oq to‘r bilan to‘silgan, boshida qizil matodan qilingan qalpoq kiyib olgan bulib,to‘r sal-sal yelkalariga tushib turardi.Xonimning bosh kiyimi juda uzun, uning ko‘pdan-ko‘p yirik, yiltir-yiltir qilgan dumaloq marvaridlari, yoqut, ferauza va boshqa turli-tuman, juda chiroyli ishlov berilgan toshlari bor edi. Yelkasiga tushib turgan to‘r ham oltin gulli edi, ustidan juda chiroyli, ko‘p qimmatbaho toshlar bilan bezalgan oltin toj bor edi. Uning eng tepasida uchta yoqutdan, ikki barmoqcha keladigan yorqin va favqulodda go‘zal, kuchli yiltiraydigan qurilma bor edi. Qurilmaning uchini bir tirsak balandligida katta jig‘a bezab turar, uning ayrim parqulari pastga, boshqalari yuziga va ko‘zlarigacha egilib turardi. Bu parqular oltin tizimcha bilan bog‘langan, tizimchaning oxirgi uchi toshchali va marvaridli qush qanotlaridan qilingan oq qilqalamga o‘xshardi. Xonim odimlab kelayotganda bu jig‘a har tarafga hilpirardi. Qop-qora sochlari yelkalariga tushib yoyilib turardi. Boshidagi bosh kiyimni bir necha oqsuyak xonim ushlab olguday hushyor bo‘lib izidan kelardi. Hammasi bo‘lib uch yuzdan ortiq asilzoda ayol Kanoning ortidan kelardi».

Xalq Bibixonimni juda yaxshi ko‘rar, u haqda bir qator go‘zal afsonalar tildan tilga ko‘chib yurardi. Misol uchun bitta afsona mana bunday:

1399 yilda Hind safaridan zafar bilan qaytgan Sohibqiron Temur juda katta masjid va madrasa qudirish rejasini o‘rtaga qo‘ydi. Movaraunnahrning eng mohir muhandislari, tajribali ustalari, Ozarbayjon, Fors, Hindiston va boshqa mamlakatlarning toshtaroshlari, hammasi bo‘lib 200 kishi bирgalikda qurilish asoslarini qo‘ydilar. Tog‘larda 500 kishi toshlarni yo‘nib, tayyorlab shaharga yuborib turardi. Aravalarga qo‘shilgan ho‘kizlar, 95 ta Hindistondan keltirilgan tog‘da-tog‘day fillar ishga qo‘yilgandi. Temur bir necha oygina qurilishni o‘zi shahzodalar, amirlar bilan birga kuzatib turdi, ammo tezda yana uzoq muddatli yangi safarlarga otlandi. Qurilishga rahbarlikni Bibixonimga topshirdi. Bibixonimga oid afsonalarning aksariyati o‘sha darga oiddir.

Bibixonim erining qaytishiga sovg‘a bo‘lsin deb dunyoda tengi yo‘q ulug‘vor masjidni bitkazishni o‘ylab qo‘ydi. U quruvchilarni chaqirib, ularni ilhomlantrish uchun, qimmatbaho oltin-kumush, bebafo toshlar uyumini ko‘rsatdi. Ularning har biri ishiga yarasha shu boyliklar bilan mukofotlanishini aytdi. Ish qizib ketdi. Minoralar ko‘klarga cho‘zildi, keng maydonda oq marmar ravoqlar qatori tiklandi, havorang minora ko‘k toqi bilan bahslashayotgandek edi. Faqat ravoqning eng baland arkini tepadan birlashtirishi kerak edi. Ammo yosh me’mor ishni bitkaza qolmas, orqaga surar edi, chunki u Bibixonimni sevib qolgandi, qurilishni tamomlasa xonimni hech qachon ko‘ra olmasligini bilardi. Temur esa Samarcandga yaqinlashar va sabrsizlik bilan kelaverish to‘g‘risida ijozat so‘rab to‘xtovsiz chopar yuborardi. Bibixonim me’morga, ishni tezroq bitkazing, deb mye’mor esa, turli ranglarga bo‘yalgan tuxumlarni yuborib, po‘sti archilsa hammasining mazasi bir degan gapni uqtiradi.

Bibixonim madrasasi keng va bahaybat, o‘ymakor marmardan, yetti il metall qo‘yib mustahkamlangan, oltin va kumush suvi bilan bezalgan, darvoza tabaqalari o‘rnatilgan, bu darvoza ochilib-yopilganda nozik rangli metall titrab turgani ko‘zni olardi.

Yana bir rivoyatga ko‘ra, Bibixonim qosh qoraygach, kanizlari bilan kiyimlarini o‘zgartirib madrasa tomonga borarkan, talabalarning tirikchiligi qanday o‘tayotganini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, tekshirib kelarkan. Bir kuni borsa hamma hujralarning chirog‘i o‘chganu, bittasining chirog‘i yoniq ekan. Saroymulkxonim o‘sha hujra eshigi yonida talabalarning suhbatiga quloq solibdi. Ulardan biri ikkinchisiga:

-Qani, to‘g‘risini ayt, hozir ko‘ngling nimani istayapti? – dehti:

-Qo‘y go‘shti, qo‘y yog‘ida dimlangan bir lagan palov bo‘lsaydi... Sen-chi?

-Madrasa sohibasi Bibixonim dunyoda tengi yo‘q go‘zal, deb eshitganman. Qaniydi xonim bilan bir marta suhbatlashsam...

-E, ovozingni o‘chir, bir falokatni boshlaysan bu gaping bilan...

Saroymulkxonim hujra yonidan uzoqlashib, kanizlari bilan saroya qaytibdi.

Ertasiga barcha talabalar saroya chaqirtirilib, ularga ziyofat berilibdi. Qo‘y go‘shti, qo‘y yog‘ida tayyorlangan yog‘liq palov tortilibdi. Shundan so‘ng yuziga parda tortilgan holda Bibixonim kirib kelib:

-Xo‘sh, mulla yigitlar, yog‘lik palov bo‘libdimi? – dehti palovni orzu qilgan yigitga yuzlanib.

-Qulluq, xonoyim, ta‘rifdan ziyoda bo‘libdi, - deyishi bilan Bibixonim birinchi tolibi ilmga:

- Endi sizning orzuungizga kelsak. Bilasizki, men sohibqironning nikohidaman, demak, siz bilan suhbat qurmog‘im mumkin emas. Ammo o‘zimning go‘zal kanizlarimdan birini sizga nikohlاب berarman. Rozimisiz? – dehti. Tili kalimaga kelmay, es-hushini yo‘qotayozgan talaba o‘zini xonim oyog‘iga tashlabdi:



-Uzr, afv etsinlar, xonoyim, bu beadab qulingizning gunohidan o‘ting.

Bu asnoda Saroymulkxonimning ishorasi bilan mehmonxonaga qozi va imom kirib kelibdi va barcha talabalar guvohligida kanizlardan birini unga nikohlab qo‘yibdilar.

Rivoyatlar osmondan tushmaydi. Xalq fantaziyasiga qanot beruvchi voqealar bo‘lganligi har qanday gumonlardan xolidir.

### Miraziz A’ZAM

Sohibqiron Amir Temur malika Saroy Mulk xonimni o‘z nikohiga kiritgunga qadar, haramida boshqa xotinlari ham bor edi. Lekin xon avlodiga mansub Saroy Mulk xonim haramdagи barcha malikalardan ulug‘rog‘i hisoblanib, «katta xonim» yoxud «Bibixonim» degan unvonga noil bo‘ladi. Albatta, bunday e’zozga musharraf bo‘lish uchun aql-zakovat, did-farosat, fikrlash doirasining ulkanligi bosh omil bo‘lgan. Zotan, tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Saroy Mulk xonim zamonasining yuksak idrokli, farosatlari, tadbirkor va aql-zakovat sohibasi, husn-latofat bobida ham benaziri edi. Saroy Mulk xonim insonparvar, vatanni sevguvchi, mamlakatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidan yaxshigina xabardor bo‘lgan, saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan qatnashib turgan ayol edi. Ayniqsa, ilm-ma’rifatga alohida e’tibor ila qarar, tolibi ilmlarga homiylik qilardi.

Amir Temur saroyida joriy qilingan tartibga ko‘ra, chet ellik elchilarni qabul qilish marosimlarida hukmdor yonida xotiilari ham ishtirok etishgan. Ispaniya qiroli Genrix III ning Samarqand hukmdori Amir Temur huzuriga yuborgan elchisi Ryui Gonzales de Klavixoning yozishicha, 1404 yil 8-sentyabr dushmanba kuni Amir Temur Samarqand chetidagi «Dilkusho» bog‘ida elchilarni qabul qiladi. Qabul marosimi katta ziyofat va tantana bilan boshlangan. Klavixoning hikoya qilishicha, qabul marosimida hukmdor Temurning yonida Saroy Mulk xokim boshliq boshqa xotinlari ham yuzlariga parda tashlab o‘tirganlar. Ispan qiroli yuborgan hadyalar orasida hukmdorga ko‘proq qizil movut ma’qul bo‘lgan. Bu haqda u o‘z xotinlari, avvalo Saroy Mulk xonim bilan fikrlashadi. 1404 yil 17-oktyabr juma kuni Saroy Mulk xonim ham katta ziyofat beradi. Ziyofatda boshqa elchilar qatorida ispan elchisi Ryui Gonzales de Qlavixo ham qatnashadi. Klavixo Temur bog‘larida berilgan ziyoftlarning to‘kin-sochinligi, bog‘lardagi rang-barang ipak chodirlar, undagi oltin-kumush jihozlari bog‘larning o‘ta did va farosat bilan jihozlangani haqida maroq ila hikoya qiladi.

Afsuski, Saroy Mulk xonim madrasasi uzoq turmadidi. Rivoyatlarga ko‘ra XVI asr oxirida Buxoro amiri Abdullaxonning temuriylarga xusumati tufayli, maxsus farmon bilan madrasani budzdirib tashladi. Faqat madrasa yoniga qurilgan maqbaragini saqlanib qolgan. Maqbaraning old tomoni rang-barang koshinlar bilan bezatildi. Maqbaraning ichki qismidagi bezaklarga yashil, qizil va qora bo‘yoqlar bilan jilo berildi. Izoralarga yulduz shaklida ko‘k naqshlar ishlanib, koshinli hoshiyalar bilan o‘raldi. Maqbara dahmasiga tashqaridan maxsus eshik orqali kiriladi. Dahma devorlari xilma-xil koshinlar bilan bezatilgan bo‘lib, dahma ichiga tosh tobut qo‘yilgan.

Samarqandda mashhur Bibixonim masjidi jome’si ham bor. Bu masjidni amir Temur Hindiston yurishidan qaytib kelgach, 1399—1404 yillar mobaynida o‘zining ulug‘ bekasi Saroy Mulk xonimga atab qurdirgan. Binobarin, bu «Bibixonim» masjidi jome’yi nomi bilan mashhur bo‘lgan. Masjidi jome’ O‘rta Osiyodagi obidalarning eng yirigi sanaladi. Uning hovlisining sahni 63,8X76,0 metr bo‘lib, atrofi ravoq va peshtoqlar bilan o‘ralgan. Masjidning umumiy sahni esa 167x109 metrdir.

Davr o‘tishi mobaynida Bibixonim masjidi zilzilalar ta’sirida ancha futurdan ketib, vayronaga aylandi. Hozirgi kunda Bibixonim masjidi bir-biri bilan bog‘lanmagan olti bo‘lakdan iborat bo‘lib, hovlining yuqori qismida mehrobli baland peshtoqli bino, poygakda masjidning ikkiga ajralgan peshtoqi hamda shimoli-g‘arb qismida yakka holda saqlanib qolgan minora. O‘z davrida mazkur bo‘laklar uch qator oq marmar ustunli, yengil ravoqli peshayvonlar bilan bir-biriga birlashtirilib, ularning ustida 400 ta gumbazchalar bo‘lgan. Ustunlarning jami 480 ta bo‘lib, oralig‘i — 3,5 metr, ostki qismi maxsus tagkursili, o‘rta qismi o‘yma naqshkor, yuqori qismi rangli koshinlar bilan qubba shaklida ishlangan. Hovli o‘rtasiga marmar toshdan ulkan lavh — Qur‘on qo‘yib o‘qiladigan maxsus kursi qo‘yilgan. U avvallari asosiy bino ichida bo‘lib, 1875 yilda gumbazning qulash xavfi tug‘ilganda hovli o‘rtasiga chiqarib qo‘yildi. Mazkur lavh Ulug‘bek Mirzo ko‘ragonning farmoni bilan yasalgan. Lavhga «Sulton a’zam, oliy himmatli xoqon, din-diyonat homiysi, Hanafiya mazhabining posboni, aslzoda sulton ibn Sulton amir al-mo‘minin Ulug‘bek ko‘ragon» deb yozilgan.

Bibixonim masjidiga kiraverishdagi katta peshtoqning ustki qismi 1897 yilgi zilzilada qulab tushgan. Peshtoqning ichki qismida kichikroq ikkinchi ravoq va uning o‘yma marmar hoshiyali



darvozasi ham bo‘lgan. Darvoza ustiga o‘rnatilgan lavhada masjidning qurilgan yili va amir Temurning shajarasi bitilgan. Masjidning «haft jo‘sh»—yetti xil metall qotishmasidan yasalgan qo‘sh tabaqali darvozasi bo‘lgan. Bu darvoza keyinchalik yo‘qolib ketgan.

Bibixonim masjidi ayni davrda vayrona holda bo‘lsa-da, serhasham bezaklarning o‘ta nafisligi kishi diqqatini o‘ziga jalg etadi. Rang-barang shakl va naqshlar o‘sha davr ustalarining nozik did va yuksak mahoratidan dalolat berib turadi.

1405 yil 18 fevralda sohibqiron amir Temur O‘trorda vafot qilgach, Samarqand taxtiga uning nabirasi Xalil Sulton Mirzo (1384—1411) o‘tirdi. Ibn Arabshohning bergan ma’lumotiga ko‘ra, Xalil Sulton Mirzoning xotini Shod Mulk begin 1408 yilda Saroy Mulk xonimni zaharlab o‘ldirgan. Saroy Mulk xonimning jasadini o‘zi qurdirgan madrasasi yonidagi maqbaraga «tosh tobut»ga solib, mo‘miyolanib dafn qilingan. 1941 yil iyun oyida Go‘ri Amir maqbarasida abadiy uyquga ketgan amir Temur, Shohruh Mirzo, Muhammad Sulton Mirzo va Ulug‘bek Mirzolarning qabrlari ochib tekshiriladi. Saroy Mulk xonim qabri ham ochilib, jasadni tekshirish maqsadida Toshkentga olib kelishgan. Keyinchalik yana Samarqandga olib borib qo‘yilgan.

Sohibqiron Amir Temur Saroy Mulk xonimdan farzand ko‘rmagan. Ammo sohibqiron o‘z o‘g‘li Shohruh Mirzoni, suyukli nabiralari Muhammad Sulton Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Ulug‘bek Mirzo va boshqa mirzolarii bevosita zukko Saroy Mulk xonim tarbiyasiga topshirgan edi.

### Foydalaniman adabiyotlar ro‘yhati

1. Turg‘un Fayzievning “Temuriy malikalar” kitobidan olindi.



**УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА “ТЕМУР ТУЗУКЛАРИ”ДАН ОЛИНАДИГАН  
ХУЛОСАЛАР: ТУМУР ҚАДРЛАГАН 12 ТОИФА**

**Дехқонов Анвар Валижонович**  
Ижтимоий фанлар кафедраси ўқитувчиси  
Телефон: +998975931969  
quyosh0817@gmail.com

**Аннотация:** Улуғ саркарда бобомиз Амир Темурнинг “Тузуклар”и асрлар оша давлат ва жамиятни бошқаришда йўналиш, маслаҳат ва ўрнак олишга лойиқ асар сифатида ўз аҳамиятини йўқотмаганлигига оид ҳамда буюк давлат арбобининг давлатни бошқаришда доим эътиборда тутган 12 тоифа кишилари ҳақида қарашлар, мулоҳазалар ушбу мақоладан ўрин олган.

**Калит сўзлар:** Амир Темур, “Темур тузуклари”, давлатчилик, дипломатия, ҳарбий маҳорат, бунёдкорлик, илму фан, санъат, меъморчилик, 12 тоифа кишилари, саййидлар, уламо, шайхлар, ақлли кишилар, кенгаш соҳиблари, амирлар, сипоҳлар, раият.

Бу йил буюк соҳибқирон, давлат арбоби, улуғ саркарда ва ўз замонасининг энг билимли ва доно кишиларидан бўлган бобомиз Амир Тумур таваллудининг 685 йиллигини нишонладик. Буюк бобомизнинг мамлакат, эл-улус, дину маърифат ривожи учун қилган хизматлари бекиёсdir. Унинг ҳаёти, амалга оширган ишлари, босиб ўтган йўли ва ҳаётий тажрибалари ҳақида, уларнинг дунё тарихи ва тамаддунидаги ўрни ҳақида ватандош олимларимиз ҳамда хорижий юрт олимлари жуда кўплаб илмий тадқиқотлар олиб борганлар ва ҳамон давом эттироқдалар.

Буюк бобомизнинг давлатчилик ва дипломатия, ҳарбий маҳорат, бунёдкорлик, илму фан, санъат ва меъморчиликка оид билимлар, эл манфаатини ўйлаб иш тутиш билан боғлиқ ибратли фазилатлар соҳиби бўлганлиги буюк давлат арбобининг ўзи томонидан яратилган “Темур тузуклари”да ўз исботини топган десак, адашмаган бўламиз.

“Тузуклар”да буюк давлат арбоби, улуғ саркарда, ўз замонаси билимларини моҳирона эгалланган доно ҳукмдорнинг улкан ҳаётий тажрибалари баён қилинган. Бу фикрлар қарийб етти асрки ўз аҳамияти ва таъсир қувватини ҳамда долзарблигини заррача йўқотмай келмоқда.

Бугун соҳибқирон бобомизнинг ушбу “Тузуклари”да келтирилган буғунги кунимиз учун энг аҳамиятли ўйтларидан бири, ўзи ардоқлаган, ишонган ва доимо эътиборида олиб юрган 12 тоифа кишилари ҳақида мушоҳада қилмоқчимиз. Бу 12 тоифа кишилари “Темур тузуклари”нинг “Мамлакат ишлари тузуки” бобида келтирилади.

Унда: “Салтанатимни ўн икки тоифадаги кишилар билан мустаҳкамладим. Салтанатим мартабаси бўлмиш тўра-тузуклар ва қонун-қоидаларни ҳам шу ўн икки тоифага боғлаб туздим. Бу ўн икки тоифани салтанатим фалакининг ўн икки буржи ва давлатим корхонасининг ўн икки ойи деб хисобладим”, - дея келтирилади. Амир Темур фикрини давом эттириб, ушбу 12 тоифа кишиларни қуидагича таърифлайди:

**Биринчи тоифа** – саййидлар, уламо, шайхлар ва фозилларни ўзимга яқинлаштиридим. Улар менинг саройимга доимо келиб-кетиб, мажлисларимни безаб туришарди. Диний, ҳуқуқий, ақлий масалаларни ўртага ташлаб, қимматли фикрлар билдиришарди. Ҳалол ва ҳаромга оид масалаларни мен улардан ўргандим.

**Иккинчи тоифа** – ақлли кишилар ва кенгаш соҳиблари, эҳтиёткор, қатъиятли арбоблар, кейинини ўйлаб, олисни кўриб иш юритувчи, кекса ва тажрибали кишиларни хос мажлисимга киритиб, уларнинг сухбатларидан, ишларидан наф олиб, тажрибалар ҳосил қиласдим.

**Учинчи тоифа** – дуогўй кишиларни қадрладим. Хилватда улардан дуолар тилаб, истакларимнинг бажо этилишини ўтиниб сўрардим. Мажлисларда, йигинлар, базмлар ва жанг майдонларида улардан кўп баракотлар топдим...

**Тўртинчи тоифа** – амирлар, сарҳанглар (форсча - “саркарда”), сипоҳ-солорларга мажлисимдан ўрин бераб, мартабаларини юқори кўтардим. Улар билан сухбатлашиб, маслаҳатлар олдим... Сипоҳгарлик ишларида уларга ишониб кенгаш сўрар эдим.

**Бешинчи тоифа** – сипоҳ ва раият бўлиб, ҳар иккисига бир кўз билан қарадим. Сипоҳийлардан чиқсан баҳодирлар, довюракларга маҳсус фахрли ўтоғ (ўтов), камар ва



ўқдон тақдим этиб, мартабаларини кўттардим...

**Олтинчи тоифа** – ишончли, тўғри эътиқодли оқил-хирадманд кишиларким, давлат сирларини уларга очиб, салтанат ишлари бўйича улардан маслаҳат олишимга лойиқ эдилар. Бу тоифа кишилар билан сирдошлик қилиб, ўз маҳфий ишларим ва пинҳоний сир-асроримни ўшаларга топширдим.

**Етгинчи тоифа** – вазирлар, девон котиблари ва муншийларки, салтанатим саройини шулар билан безатдим. Буларни менга тобеъ мамлакатларни кўрсатувчи кўзгу деб билдим. Чунки, улар ҳар мулк-мамлакат, сипоҳ ва раият воқеаларини менга билдириб турдилар...

**Саккизинчи тоифа** – ҳакимлар, табиблар, мунажжимлар ва муҳандисларки, улар салтанат корхонасига ривож берувчилардир. Уларни ўз атрофимга тўпладим. Ҳакимлар ва табиблар билан иттифоқда bemorlarни даволатар эдим. Мунажжимлардан сайёralарнинг қутлуғ-қутсиз кунлари, уларнинг ҳаракати ва осмонда айланишини аниқлаб олардим. Муҳандислар билан иттифоқда олий иморатлар барпо этиб, боғу бўстонларнинг тарҳини чиздирадим.

**Тўққизинчи тоифа** – муҳаддислар, (пайғамбар, унинг авлодлари ва саҳобалари) ҳақида ривоятлар нақл қилувчилар ҳамда қиссанонлар бўлиб, уларни ҳам ўзимга яқинлаштиридим... Ҳар қайсисининг қиссалари ва хабарлари, ишлари ва сўзларини эшишиб тажрибам ортди. Оламда бўлаётган воқеаларни улардан эшитардим ва жаҳон аҳли аҳволидан хабар топар эдим.

**Ўнинчи тоифа** – машойихлар, сўфиylар, (Худони таниган) орифлардир. Уларнинг хизматларида бўлиб, сухбатлар курдим ва охират фойдаларини олдим...

**Ўн биринчи тоифа** – касбу ҳунар эгаларидир; буларнинг ҳар тоифа ва синифдан бўлганларини давлатхонамга олиб келиб, ўз ўрдамдан ўрин белгиладимки, сафардаю турғунлиқда сипоҳимга керак яроклар ҳамда бошқа жиҳозларни ҳозирладилар.

**Ўн иккинчи тоифа** – ҳар мамлакат ва диёр саёҳатчиларию мусофиirlарининг бошини силадим, улар турли мамлакатлардан менга хабар келтириб турдилар... Ўша мамлакатларда истиқомат қилувчи кишиларнинг ҳол-аҳволи, туриш-турмуши ҳақида менга хабар олиб келсинлар. Ҳар бир мамлакат ҳукмдорининг ўз раиятига қандай муомалаю муносабатда эканлигини аниқласинлар.

Буюк аждодимиз томонидан яратилган ушбу нодир асарда улкан мамлакатни бошқаришда таяниш лозим бўлган 12 тоифадаги фазилат ва касб-кор эгалари хусусида айтиб ўтилиши бежизга эмас, албатта. Чунки, давлатни бошқариш, бу – кўпчилик билан маслаҳатлашиб, кенгашиб, аҳоли манфаатларидан келиб чиқиб, қўшни ва жаҳон мамлакатларидаги аҳволни ҳам ўрганиб бориш орқали, узоқни ўйлаб амалга ошириладиган ишдир.

“Тузуклар”ни ўқир экансиз давлатни бошқаришда, аҳоли, амалдорлар, давлат хизматчилари, ҳарбийлар, хорижий мамлакатлар билан алоқалар, уларнинг элчиларига муносабатлар, ички ва ташқи сиёсатда амал қилиш лозим бўлган тартиб-қоидалар ва энг асосийси инсон табиати, психологиясига оид жуда керакли билимлар мохирлик ҳамда ҳаётий мисоллар орқали баён этилганига амин бўласиз.

Ўйлаймизки, бугун олий таълим муассаларида таълим олаётган талабалар мамлакатимизнинг бўлажак раҳбарлари сифатида “Тузуклар”да берилган ҳаётий тажриба ва хulosаларни ўқув машғулотларида ва мустақил ўрганиб борсалар ҳамда ўз фаолиятларида кенг фойдалансалар бундан факат ва фақат фойда олур эдилар.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Темур тузуклари. Т. “Ўзбекистон”. 2019.
2. Б. Ахмедов. Амир Темур ўгитлари. Т. “Ўзбекистон”. 2007.

# **ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 1-ҚИСМ**

**(3-қисм)**

**Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович  
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович  
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев**

Эълон қилиш муддати: 31.01.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Tel: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000